

Ad  
R-91

# RUS XALQ ERTAKLARI



82	2422/1

R-21
------

Rus xalq ertaklari
--------------------

2020y			8740
-------	--	--	------

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан  
кечикирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар миқдори \_\_\_\_\_

82  
R-91

# RUS XALQ ERTAKLARI



«YANGI KITOB»  
TOSHKENT  
2020

UO'K: 398.2(=161.1)

KBK: 82.3(2Rus)

R 91

**R 91** Rus xalq ertaklari [Matn] / tuzuvchi A. Ashurov. – Toshkent:  
Yangi kitob, 2020. – 96 b.

ISBN 978-9943-5768-7-2

UO'K: 398.2(=161.1)

KBK: 82.3(2Rus)

*«Ertak yolg'ondan iborat, ammo unda bolalarga ibrat bo'lgulik saboqlar ozmuncha emas», deyiladi rus matallarida. Bu bejiz emas. Xayolotsiz ertakning o'zi yo'q. Ular ibratomuz bo'lib, «yaxshi bolalar» o'zлари uchun hayotda kerakli yaxshi narsalarni оrganadilar. Bu yaxshi narsalar esa chiroqli odob-axloq, ezgulik, halollik, oqillik kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Hatto boshga kulfat tushganda undan qutulish tadbir va yo'l-yo'rqliklarini оrganishda ham ertaklar katta ahamiyatga ega.*

*Bir-biridan qiziqarli ertaklar olamiga xush kelibsiz, aziz bolajonlar!*

Tuzuvchi:  
**Akbarali ASHurov**

ISBN 978-9943-5768-7-2

© Akbarali Ashurov.

© «Yangi kitob», 2020.

2922/1

3041200004 841-1

## Bo‘g‘irsoq



Бор екан-да, yo‘q екан, bir chol bilan kampir bor екан. Bir kuni chol:

- Kampir, menga bo‘g‘irsoq pishirib bergen, – debdi.
- Nimadan pishirib beraman? Un yo‘q-ku! – deb javob beribdi kampir.
- E, kampir! Suprani qoqib, quti ichini sidirgin, qarabsanki, birpasda bo‘g‘irsoqqa yetadigan un yig‘ilib qoladi, – debdi chol.

Kampir suprani qoqib, quti ichini sidirib, bir-ikki hovuch un yig‘ibdi. Unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab bo‘g‘irsoq qilibdi, tovaga solib yog‘da pishiribdi-da, sovusin deb derazaga qo‘yibdi.

Bo‘g‘irsoq derazada yotaverib zerikibdi, bordaniga yumalab so‘riga o‘tibdi. Undan yerga tushibdi, keyin

eshik yoniga boribdi, so'ng bir sakrab dahlizga chiqibdi, dahlizdan zinapoyaga, zinapoyadan hovliga o'tibdi-da, tashqariga chiqib ketaveribdi.

Bo'g'irsoq yo'lida yumalab ketayotganida, oldidan bir quyon chiqib qolibdi:

– Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq! Men seni yeypman, – debdi quyon.

– Yo'g'-ey, meni yemagin, shalpangqulqoq, so'zimga solgin qulqoq; senga ajoyib qo'shiq aytib beraman, – debdi bo'g'irsoq va qo'shiq aytibdi:

*Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un-urvoq.  
Sidirishib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda.  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketdim buvimdan,  
Eshit, quyon, bo'ldi, bas,  
Sendan qochish hech gapmas!*

Bo'g'irsoq qo'shig'ini tamomlab, yana olg'a qarab yu-malab ketaveribdi. Quyon esa ahmoq bo'lib qolaveribdi...

Bo'g'irsoq yumalab ketaveribdi, shunda ro'parasidan bir bo'ri chiqib:

– Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeypman, – debdi.  
– Yo'g'-ey, meni yemagin, kulrang bo'ri, senga qo'shiq aytib beraman, – debdi bo'g'irsoq.

*Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un-urvoq.  
Sidirishib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda.  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketdim buvimdan,  
Qochib ketdim, quyondan,  
Eshit, bo'ri, bo'ldi, bas,  
Sendan qochish hech gapmas!*

Bo'g'irsoq yana olg'a qarab yumalab ketaveribdi, bo'ri esa ahmoq bo'lib qolaveribdi...

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab borayotganida, ro'parasidan ayiq chiqib qolibdi:

- Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, men seni yeymen, – debdi ayiq.
- Eh-ha, yeb bo'psan, maymoq oyoq!

*Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un-urvoq.  
Sidirishib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda.  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketdim buvimdan,  
Qochib ketdim, quyondan,  
Qochib ketdim bo'ridan,*

*Eshit, ayiq, bo'ldi, bas,  
Sendan qochish hech gapmas!*

Shunday qilib, bo'g'irsoq bir yumalab qochib ketibdi,  
ayiq ahmoq bo'lib qolaveribdi...

Bo'g'irsoq yumalab-yumalab ketayotganida, ro'parasidan bir tulki chiqib qolibdi-da:

– Salom, bo'g'irsoq! Qanday chiroylisan, xuddi qip-qizil mag'izdaysan-a! – debdi.

Bo'g'irsoq judayam taltayib ketibdi-da, qo'shiq aytibdi:

*Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq,  
Supradagi un-urvoq.  
Sidirishib oldilar,  
Qaymoqqa xo'p qordilar,  
Pishirdilar tovada,  
Sovutdilar havoda.  
Qochib ketdim bobomdan,  
Qochib ketdim buvimdan,  
Qochib ketdim, quyondan,  
Qochib ketdim bo'ridan,  
Qochib ketdim ayiqdan,  
Eshit, tulki, bo'ldi, bas,  
Sendan qochish hech gapmas!*

– Ajoyib qo'shiq ekan! – debdi tulki, – eh, attang, bo'g'irsoq, men qarib qolibman, qo'shig'ingni yaxshi eshit-mayapman; tumshug'imga chiqib yana bir marta qatiqroq aytib bergen.

Bo'g'irsoq tulkining tumshug'iga sakrab chiqib o'sha qo'shiqni aytibdi.

– Rahmat, bo'g'irsoq, ajoyib qo'shiq ekan, yana eshit-gim kelyabdi, tilimga chiqib, oxirgi marta aytib ber.

Tulki shunday debdi-yu, tilini chiqaribdi. Bo'g'irsoq laqillab, lip etibdi-da, tulkining tiliga chiqibdi: tulki bo'lsa uni xap etib yeb qo'yibdi.



## Tulki va tayoqcha

Тulki yo'lda ketayotib, tayoqcha topib olibdi. Qishloqqa yetib kelib bir uyning eshigini taqillatibdi:

– Xo'jayin! Bir kecha tunashga ruxsat bering, – debdi tulki.

– Sensiz ham joyimiz tor-ku! – degan ovoz eshitilibdi ichkaridan.

– Og'irligim tushmaydi sizga. O'zim kursida, dumim kursi ostida, tayoqcham bo'lsa o'choq tagida turadi, – debdi u.

Uni uyg'a kiritishibdi. Tulki kursiga yotibdi, dumini kursi ostiga bosibdi, tayoqchasini o'choq tagiga qo'yibdi. Tunda esa o'rnidan turib, tayoqchani yoqib yuboribdi. Ertalab turib so'rabdi:

– Qani mening tayoqcham? Endi o'rniغا tovug'ingizni bering!

Dehqon nima qilishini bilmay, tayoqchaning o'rniغا tulkivoya tovug'ini beribdi. Tulkivoy tovuqni olib yo'lda davom etibdi. Endi boshqa xonodon eshigini taqillatib, uy egasiga debdi:

– Xo'jayin! Bir kecha tunashga ruxsat bering!

– Joyimiz o'zimizga ham tor, – degan ovoz eshitilibdi uy ichidan.

– Sizga og'irligim tushmaydi. O'zim kursida, dumim kursi ostida, tovug'im bo'lsa o'choq boshida turadi, – debdi tulki.

Uni uyga qo'yishibdi. Tunda esa tulki turib tovuqni yeb qo'yibdi. Erta bilan o'rnidan turib so'rabdi:

– Qani mening tovug'im? Endi o'rniga o'rdakchan-gizni berasiz!

Dehqon nima qilishini bilmay, tulkiga tovuqning o'rniga o'rdagini beribdi.

Tulki o'rdakni olib, yo'lida davom etibdi. Uchinchi uy eshigini qoqibdi.

– Men tulkivoymen, tulkivoy. Bir kecha tunashga ruxsat bering, – debdi.

Uni uyga kiritishibdi. Tunda tulki o'rdakni yeb qo'yib-di-da, ertalab debdi:

– Qani mening o'rdakcham? Endi o'rniga qizingizni berasiz.

Dehqon qizchasini bergisi kelmabdi. Shunda qopga itni solib tulkiga beribdi.

Tulki qopni yelkasiga ortib, yo'lga tushibdi. Biroz yur-gandan so'ng:

– Qani qizcha, ashula aytishni boshla-chi, – debdi.

Qop ichidagi it shunday irillabdiki, tulkivoy dahshat-ga tushib, ura qochibdi. It esa uning ortidan quvib-di. Tulkivoy bazo'r qochib qutulib, jonini zo'rg'a omon saqlab qolibdi.

Tulki o'z uyasida na tirik, na o'lik holda ekan.

Chunki, qilmishiga yarasha jazosini olibdi-da!



## Bo'ri va yetti uloqcha



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir echki bo'lgan ekan. Uning yettita uloqchasi bor ekan. Hamma onalar singari u ham bolalarining yettovini birdek yaxshi ko'rар va erkalar ekan. Ona echki tez-tez yemish qidirib, o'rmonga borar ekan. Ketayotib uloqchalariga:

– Bolajonlarim, eshikni mahkam yopib, hech kimga ochmay o'tiringlar. O'rmonda och bo'ri izg'ib yuribdi. Ehtiyyot bo'linglar! – deb tayinlarkan.

Ona echki o'rmonda o't-o'lan bilan ovqatlanib, muzdekk suv ichib, bolalarining oldiga kelarkan. Eshikni taqil latib, qo'shiq aytar ekan:

– *Uloqchalarim, bolajonlarim!*  
*Eshikni oching, mehribonlarim!*  
*Onangiz sizga sut olib keldi,*  
*Yelini to'lib, yerga to'kildi.*

Bolalari shu zahoti eshikni ochib, onasini kutib olishar ekan. Ona echki ularni ovqatlantirib, yana o'rmonga ketar ekan.

Bu holni kuzatib turgan bo'ri, echki o'rmonga kirib ketishi bilan uycha yoniga kelib, do'rillab qo'shiq aytibdi:

– *Uloqchalar, bolachalar!*  
*Eshikni oching,*  
*Onangiz keldi,*  
*Sut olib keldi.*

Echki bolalari shunday deyishibdi:

– Eshityapmiz, eshityapmiz. Ovozing onamizniki emas! Onamiz ingichka ovoz bilan qo'shiq aytadi. Hoy bo'ri, bu yerdan yo'qol!

Bo'ri o'ylab-o'ylab ovozini o'zgartirish uchun temir-chining yoniga ketibdi.

Ona echki qaytib kelib, eshikni taqillatibdi va kuylay boshlabdi:

– *Uloqchalarim, bolajonlarim!*  
*Eshikni oching, mehribonlarim!*  
*Onangiz sizga sut olib keldi,*  
*Yelini to'lib, yerga to'kildi.*

Echki bolalari eshikni ochishib, o'z onalarini kutib olishibdi. Keyin birin-ketin bo'ri kelgani, ularni aldab yemoqchi bo'lgani haqida so'zlab berishibdi. Ona echki uloqchalarini ovqatlantirib bo'lib, hech kimga eshik ochmasliklari haqida qattiq tayinlabdi-da, o'rmonga qarab ketibdi.

Ona echki ketishi bilan bo'ri yana uy yonida paydo bo'libdi. Eshikni taqillatib, ingichka ovozda qo'shiq aytibdi:

*– Uloqchalarim, bolajonlarim!  
Eshikni oching, mehribonlarim!  
Onangiz sizga sut olib keldi,  
Yelini to'lib, yerga to'kildi.*

Uloqchalar bo'rining ovozini payqamay eshikni oolib yuborishibdi. Shu on bo'ri uy ichiga otilib kirib, echki bolalarini tiriklayin birin-ketin yutib yuboribdi. Uloqchalarining faqat eng kichigi pechka ichiga kirib, omon qolibdi.

Ona echki uyg'a qaytib kelsa, eshik ochiq, hech kim yo'q. U bolalarini qidira boshlabdi. Uzoq qidirib, chaqiribdi. Hech qanday javob bo'lmasdi. Pechka ichiga nazar solib qaltirab o'tirgan kichik bolasini topibdi. Ona echki bo'lgan voqeadan xabar topib, achchiq-achchiq kuyinib yig'labdi:

*– Oh, bolajonlarim, uloqchalarim!  
Eshikni nega ochdingiz,  
Bo'ri qo'liga tushdingiz?!*

Uning ovozini bo'ri eshitib:

– Eh, echkijon! Senga rahmim kelyabti. Bolalaringni men yeganim yo'q, – debdi.

Ona echki esa uni shoxi bilan shunday suzibdiki, bo'rining qorni yorilib, ichidan uloqchalar sakrab-sakrab chiqib, onalari oldiga yugurishibdi.

O'shandan beri uloqchalar yanada hushyor va tinch-totuv yashar ekanlar.

## Mitti bola

Qadim o'tgan zamonda er-xotin yashab o'tgan ekan. Ularning hayotlari tinch, osuda, biroq farzandlari yo'q ekan. Qish oqshomlarining birida er-xotin o'tirib, o'zaro suhbat qurib qolishibdi.

– Bolalarimizning yo'qligi yomon-da, – g'amginlik bilan debdi er. – Uyimizga ularning sho'xligi va shovqini yetishmaydi.

– Ha, – xo'rsindi xotini, – jimjiloqday kichkina bo'lsa ham bittagina bolamiz bo'lganda, behad quvonar edik. Yer-u ko'kka ishonmay uni ardoqlagan bo'lardik.

Shunday bo'libdi ham, ayol homilador bo'lib, jimjiloqday keladigan o'g'il tug'ilibdi. Er va xotin shunchalik quvonib, xursand bo'lishibdiki, bu



yorug' olamda ulardan baxtliroqinson yo'q ekan, go'yo. Bolakay niyatda kichkina bo'lgani uchun unga Mitti bola deb ism qo'yishibdi. Er-xotin o'g'illarini juda sevishar, yaxshi yedirib-ichirib, jonlarini ham undan ayashmas ekan.

Yillar o'tsa ham bolakay hech o'smas, hamon mittigina bo'lib qolaveribdi. Biroq katalardek aqlli va faro-

satli ekan. Kunlarning birida er yer haydash uchun dalasi tomon yo'l olibdi. Xotini ovqat tayyorlab, dalaga olib borishga hozirlik ko'rар ekan, Mitti bola uning oldiga kelib:

- Onajon, otamga ovqatni men olib boraman, – debdi.
- Voy mening mittivoyim-ey, sen bu ishni eplolmay-san, – javob qilibdi unga onasi.
- Ko'nglingiz to'q bo'lsin, onajon, ovqatni otamga yet-kazaman.

Mitti bola otasining oldiga – dalaga borib:

- Qani otajon, siz ovqatlanib oling, men ungacha yer haydab turaman, – debdi.
- Nimalar deyapsan, o'g'lim, sen bunaqangi ishlarga hali kichkinalik qilasan, – e'tiroz bildiribdi ota.
- Hech ham kichkina emasman, siz qarab turing bu ishni nechog'lik uddalashimni o'zingiz ko'rasiz. Faqat meni otning qulog'iga o'tkazib qo'ysangiz bo'lgani.

Ota o'g'lini otning qulog'iga o'tkazibdi, bolakay esa:

- Qani, o'ngga, chapga, – deb baqira boshlabdi.

Haydalayotgan yerning yaqinidan o'tib borayotgan boy daraxt soyasida dam olib o'tirgan chol va yolg'iz o'zi yer haydayotgan otni ko'rib qolibdi. Hayratdan og'zi ochilib, ko'zлari chaqchayibdi va o'zicha: «Otning o'zi yer haydashini hali eshitganim ham, ko'rganim ham yo'q edi», deb o'ylabdi. Cholning oldiga kelibdi va so'ray boshlabdi:

- Hoy, bu sening otingmi?
- Meniki.
- Qanday qilib uning o'zi yer haydayabdi?
- O'zi haydayotgani yo'q, yonida o'g'lim ham bor.
- Aqldan ozganmisan, ey, chol? Ko'rmayapsanmi u yerda hech kim yo'q-ku! – debdi boy ensasi qotib.

– O'g'lim otning qulog'ida.

Boy otning oldiga kelib qulog'iga qarabdi, hech kim yo'q, boshqa qulog'iga qarabdi, u yerda mittigina bolakay o'tirgan mish. Boyning unga qiziqishi ortibdi va bolakayni sotib olmoqchi bo'lib:

– Uni menga sot, – debdi.

– Nimalar deyapsan? Men o'zimning sevimli bolajonimni hech qachon sotmayman.

Boy tinmay javrab, narxni tobora ko'taraveribdi.

Mitti bola boy uni sotib olmoqchilagini eshitib, otning yoli orqali otasining yelkasiga chiqib olibdi va uning qulog'iga pichirlabdi:

– Otajon, meni unga soting, baribir yoningizga qaytib kelaman.

Chol o'g'lini ming rublga sotibdi. Boy bolakayni cho'ntagiga solib jo'nab ketibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, charchab dam olishga qaror qilibdi. Daraxt soyasi ostiga o'tirib, dam olar ekan, cho'ntagidan Mitti bolani chiqarib uni tomosha qila boshlabdi. Sichqon inini ko'rib qolgan mittivoy yugurib unga kirib ketibdi. Boy inning yoniga yugurib kelib unga tayog'ini tiqa boshlabdi, ammo hech bir natija chiqmabdi. Mitti bola tobora chuqurroqqa tushib bekinibdi. Kechgacha ovo-ra bo'lgan boy qosh qorayganda hamma ishni tashlab, ketib qolibdi. Uning ketganini sezgan bolakay indan chiqibdi, qarasa allaqachon kech tushgan, hammayoq qop-qorong'i emish. Mittivoy yo'l bo'yidagi o'tloqqa kirib uqlab qolibdi. Shu payt atrofda izg'ib yurgan och bo'ri bolakayni yutib yuboribdi. So'ng yo'lida davom etib, o'ziga ovqat qidira boshlabdi. Qo'ylar podasiga yaqinlashib,

endigina bitta qo'yni ushlab olmoqchi bo'lgan ham ekan, qornining ichidan Mitti bolaning:

– Cho'pon, uxlama! Bo'ri qo'ylaringni yemoqchi, – deb baqirgan tovushi kelibdi.

Uyg'onib ketgan cho'pon tayog'i bilan bo'rini bir tu-shiribdi, itlarini ham uning ortidan qo'yib yuboribdi. Bo'ri zo'rg'a qochib, joni omon qolibdi. Yo'lida davom etar ekan, yilqilar uyuriga duch kelgan bo'ri endi ular-ga hamla qilmoqchi bo'libdi. Mitti bola bu gal ham unga xalaqit beribdi. Tamoman kuchsizlangan bo'ri holdan toyibdi. Yilqichi, podachi va itlardan olgan jarohatlari o'rnini yalab, yig'lamsirab debdi:

– Sendan iltimos qilaman, qornimdan chiq!

– Ota-onamning oldiga olib borsanggina chiqaman, – debdi Mitti bola va o'zi bo'rining qorni ichida raqsga tushib, uni tepkilay ketibdi.

Bunga chiday olmagan bo'ri bor kuchi bilan yugurib, Mittivoyning uyiga kelibdi. Bolakay bo'rining oshqo-zonidan otlib chiqibdi va qichqira boshlabdi:

– Otajon! Onajon! Bo'rini uringlar!

Chol temir kosovni, xotini esa temir ayrini olib, bo'rini shunday savalashibdiki, u zo'rg'a qochib qutulibdi.

Er va xotin Mitti bolalari sog'-salomat, shikast yetma-gan holda topilganiga suyunib, uni erkalay ketibdilar:

– Bolajonimiz yonimizga qaytdi, – deyishibdi ular. – Biz endi hech qachon seni hatto dur-u javohirga ham sotmaymiz.

Shunday qilib ular birgalikda uzoq yillar baxtli hayot kechirishibdi.

## Dehqon va ayiq

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir dehqon bo'lgan ekan. Uning uyi o'rmon etagidagi qishloqda ekan. Dehqonning birgina sadoqatli otidan boshqa yaqini yo'q ekan.

O'rmonda esa bir ayiq yashar ekan. O'sha ayiq kattagina bir to'nkaza o'tirib olib, payraha yulishni yaxshi ko'rар ekan. Ora-chora bo'kirib ashula ham aytarkan.

Bir kuni dehqon bobo sholg'om ekish uchun dalada xirgoyi qilib, yer hayday boshlabdi. Uning ovozini eshitgan ayiq to'nkasini quchog'iga olgancha dala tomon yo'l olibdi.


Borib dehqonga o'shqira boshlabdi:

– Hoy chol, nega to'nka o'yinimni buzyapsan? Hozir seni majaqlab tashlayman!

– Unday qilma, ayiq polvon. Kel, yaxshisi birga sholg'om ekaylik. Hosil yetilgandan so'ng men uning ostki qismini olaman, sen esa ustki qismini – debdi dehqon.

– Xo'p, mayli. Faqat o'zing ishla, men esa to'nkamda o'tirib tomosha qilaman.

Kunlar o'taveribdi. Quyosh charaqlab, yerni qizdiribdi. Yomg'ir yog'ib ekinni sug'oribdi. Hosil bo'y ko'rsata boshlabdi. Ularni ko'rib ayiq polvon xursand bo'lib do'rillabdi:



- Hoy, bobo dehqon, hosilni yig‘ib olish kerak!
- Yo‘q, ayiq polvon, hali erta. Kuzgacha kuyaylik, – debdi dehqon.

Kuz kelibdi. Sholg‘om katta-katta bo‘lib pishibdi. Ayiq polvon kelib, yana do‘rilay boshlabdi:

- Hoy, dehqon bobo, hosilni qachon yig‘ib olamiz?

- Ana endi vaqtি keldi, ayiq polvon! – javob beribdi dehqon bobo.

Dehqon hosilni yig‘ishtira boshlabdi. Ayiq polvon bo‘lsa:

- Qani, dehqon bobo, ulushimni ber-chi, – debdi.
- Ha, mayli, ayiq polvon, kelishganimizdek senga usti, menga osti.

Ayiq hosilni taqsimlar ekan, o‘zida yo‘q xursand bo‘libdi. Hosilning usti – bargini o‘ziga, yer ostida-gi sholg‘omni esa dehqonga tutqazibdi. Dehqon sholg‘om ortilgan aravani uyiga olib ketibdi. Ayiq polvon esa qo‘lidagi bargdan tishlab ko‘rgan ekan, yuzlari tirishib ketibdi. U jahl bilan hamma hosilni otib yuboribdi.

Keyingi yili dehqon bug‘doy ekibdi. Bug‘doy unibdi. Dehqon bobo bug‘doyni o‘rish uchun kelsa, ayiq polvon uni poylab turgan ekan.

- Hoy, dehqon, mening ulushimni ber, bo‘lmasa ezing‘ilab tashlayman, – debdi.

- Sen hosilning qaysi qismini olasan, ayiq polvon? – so‘rabdi dehqon.

– Endi menga hosilning ostini ber, o'zingga esa ustini ola qol, – debdi ayiq.

Dehqon bug'doyni o'rib, aravaga ortibdi. Ayiq polvon-ga o'zi aytganidek, hosilning osti moyasini qoldiribdi-da, uyiga jo'nabdi.

Ayiq iniga olib kelgan moyani chaynab ko'ribdi. Shunday bemaza ekanki, alamidan bo'kirib yuboribdi. Endi hech qachon dehqon bilan sherikchilik qilmaslikka qasam ichibdi.

Dehqon bobo esa uyida sho'x qo'shiqni xirgoyi qilib o'tirgan mish:

– Maymunjon-u qo'ziqorin teraman, ayiq polvon o'rmonida. Ayiq bo'lsa o'tirgancha, qotib qolgan to'nkasida.



## **Shahzoda Ivan bilan kulrang bo‘ri**

Qadim zamonda Berendey degan podsho o‘tgan ekan, uning uch o‘g‘li bo‘lib, kenjasining oti Ivan ekan.

Podshoning jannatdek bog‘i bor bo‘lib, unda bir tup oltin olma daraxti o‘sar ekan.

Birov bog‘ga kirib, oltin olmalardan o‘g‘irlab keta boshlabdi. Podsho buni bilib juda darg‘azab bo‘libdi. O‘g‘rini poylagani qorovul qo‘yibdi. Lekin qorovullar o‘g‘rini sira ham tutishholmabdi.


Podsho yemoq-ichmoqni tark etib, g‘am-g‘ussaga berilibdi. O‘g‘illari uni yupatibdi.

– Aziz otajon, g‘am chekmang, bog‘ni o‘zimiz qo‘riqlaymiz, – deyishibdi.

– Bugun navbat meniki, bog‘ni men qo‘riqlayman, – debdi to‘ng‘ich o‘g‘il.

To‘ng‘ich o‘g‘il bog‘ qo‘riqlashga ketibdi. Kech-qurun bir oz aylanib, hech kimni ko‘rmabdi. Barradek o‘t ustiga o‘zini tappa tashlabdi-da, uxlab qolibdi.

Ertalab podsho o‘g‘li-dan:



– Xo’sh, qanday xushxabar olib kelding, o‘g‘rini ko‘r-dingmi? – deb so‘rabdi.

– Yo‘q, ko‘rmadim, otajon, – debdi u. – Tuni bilan mijja qoqqanim yo‘q, lekin hech zog‘ni ko‘rmadim.

Ertasiga bog‘ qo‘riqlashga o‘rtancha o‘g‘il ketibdi, u ham tun bo‘yi dong qotib uxlabdi, ertalab kelib, o‘g‘rini ko‘rmadim, debdi.

Navbat kenja o‘g‘liga yetibdi. Shahzoda Ivan otasining bog‘ini qo‘riqlashga ketibdi, u o‘g‘rini ko‘rmay qolaman, deb na o‘tiribdi, na yotibdi. Uyqu elitsa, o‘t-o‘lanlarga tushgan shabnam bilan yuzini yuvib, uyqusini qochiribdi.

Yarim kechadan oqqanda bog‘ yorishgandek bo‘libdi. Yorisha-yorisha butun bog‘ charog‘on bo‘lib ketibdi. Shahzoda Ivan bunday qarasa qaqnus daraxtga qo‘nib, oltin olmalarni cho‘qiyotgan emish.

Shahzoda Ivan asta emaklab olma daraxti tagiga ke-libdi-da, qushning dumidan ushlab olibdi. Qaqnus patirlab uchib ketibdi, shahzoda Ivanning qo‘lida bir dona pati qolibdi.

Tong otgach, u otasining oldiga kelibdi.

– Xo‘s, kenjatoy Ivan, o‘g‘rini ko‘rdingmi?

– Otajon, tutishga tutolmadim-u, ammo bog‘imizga qanday o‘g‘ri oralayotganini bildim. U qaqnus ekan.

Podsho patni olibdi, shu kundan uning ahvoli o‘zgarib, g‘amni unuta boshlabdi. Lekin bir kuni qaqnus to‘g‘risida eslab qolibdi-da, o‘g‘illarini chaqiribdi:

– Aziz bolalarim, uchqur otlaringizni egarlasangiz, dunyoni bir aylansangiz, oq-qorani tanisangiz, uyoq-buyoqni ko‘rsangiz, qaqnus qushni uchratib qolarmi-dingiz, – debdi.

O'g'illari otalariga ta'zim qilib, uchqur otlarini egar-labdilar-da, yo'lga tushibdilar, to'ng'ich akasi bir yoqqa, o'rtancha akasi bir tarafga, shahzoda Ivan boshqa to-monga jo'nabdi.

Shahzoda Ivan yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Yoz kuni ekan. Shahzoda Ivan charchabdi, otdan tushibdi-da, uni tushovlab qo'yib, uyquga ketibdi.

Shahzoda Ivan bir mahal turib qarasa, oti yo'q emish. Otini qidirib ketibdi, qidira-qidira axir bir joydan suyak-larini topibdi.

Shahzoda Ivan: «Endi otsiz nima qilaman?» – deb o'y lab, ko'p xafa bo'libdi.

«Nachora, bo'lar ish bo'ldi, yayov ketaveraman», deb piyoda yo'lga tushibdi. Yurib-yurib, holdan toyibdi. Bar-ra o't ustiga o'tiribdi-da, g'amga cho'mibdi. Shu payt birdan uning oldiga bitta bo'ri chopib kelib:

- Ha, shahzoda Ivan, nega xafa bo'lib o'tiribsan? – debdi.
- Nega xafa bo'lmayin, bo'rijon? Uchqur otimdan ajralib qoldim.
- Otingni men yeb qo'ygan edim, shahzoda Ivan. Endi senga rahmim kelyabti! Ayt, nima sababdan bunday uzoq safarga chiqding, qayoqqa ketyapsan?
- Otam dunyoni aylanib, qaqnusni topib kel, deb yubordi.

– Uchqur otingda uch yilda ham qaqnus qushga yetolmasding. Uning qayerdaligini faqat men bilaman. Bo'lar ish bo'ldi, otingni yeb qo'ygan edim, endi senga jon-dilim bilan xizmat qilaman. Ustimga min-da, yax-shilab o'tirib ol.

Shahzoda Ivan bo'rining ustiga minib olibdi, bo'ri yugurib ketibdi, yashil o'rmonlar, ko'llar ko'z oldidan lip-lip o'taveribdi. Yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, band bir qasr oldiga kelishibdi. Shunda bo'ri bunday debdi:

– Menga qara, shahzoda Ivan, gapimni qulog'ingga quyib ol. Devordan oshib o't, qo'rqma, ayni vaqt, hamma qorovullar uxlab yotibdi. Ko'shkda bir deraza ko'rasan, unga oltin qafas osib qo'yilgan, ana shu qafas ichida qaqnus bor. Uni ol-da, qo'yningga sol, esingda bo'lsin, qafasga tegma.

Shahzoda Ivan devordan oshib o'tibdi, ko'shk derazasi-ga osig'liq oltin qafasni ko'ribdi, ichida qaqnus turgan-mish. U qushni olib, qo'yniga solgach, qafasni ko'rib ko'zi o'ynab ketibdi. Yuragi tipirchilab: «Oh, bu bebah, oltin ekan-ku? Buni tashlab ketib bo'ladimi?» – debdi-da, bo'rining gapini unutib, qafasni olibdi. Unga qo'li tegishi bilan oq qasr gumburlab ketibdi, karnaylar chalinib, do'mbiralar taraqlabdi, qorovullar uyg'onishib, shahzoda Ivanni ushlashibdi-da, uni podsho Afron oldiga olib borishibdi.

Podsho Afron darg'azab bo'lib so'rabdi:

– Kimning o'g'lisan, qayerliksan?  
– Berendey podshoning o'g'li, shahzoda Ivanman...  
– Bu qanday sharmandalik! Podsho o'g'li bo'la turib o'g'irlilik qilibsan!

– Nima bo'bdi, sizning qushingiz ham bog'imizdan oltin olmalarimizni o'g'irlab ketdi-ku?

– Unday bo'lsa huzurimga kelib, yotig'i bilan tushuntir-ganingda, otang Berendey podshoga bo'lgan hurmatim tufayli qushni senga shundoq berib yuborgan bo'lardim.

Ana endi butun shaharga nomingizni yoyaman, sizlarni badnom qilaman... Xayr, mayli, bo'lar ish bo'ldi, endi men-ga bir xizmat qilsang seni kechiraman. Falon mamlakatda podsho Usmonning oltin yolli oti bor. Shu otni olib kel-sang, qaqnus qushni qafasi bilan senga beraman.

Shahzoda Ivan qovoq-tumshug'ini osiltirib, bo'ri oldi-ga kelibdi. Bo'ri unga:

– Qafasga tegma degandim-ku senga. Nega gapimga qulq solmading? – debdi.

– Bir safar meni kechir, bo'rijon, kechir.

– Kechir, deysan-a tag'in... Mayli endi, ustimga min.

Aytgan gapimni qulog'ingga olgin.

Bo'ri shahzoda Ivanni ustiga mindirib, yana yugurib ketibdi. Yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, oltin yolli ot turadigan qasrga yetib kelishibdi.

– Devordan oshib o't, shahzoda Ivan, qorovullar uyquda, otxonaga kir-da, otni ol, ehtiyyot bo'l, tag'in yu-ganni ola ko'rma.

Shahzoda Ivan qasrga oshib tushibdi, hamma qoro-vullar uqlab yotgan ekan, otxonaga kirib, oltin yolli otni tutibdi, lekin yugandan sira ko'z uzolmasmish – u oltin-dan bo'lib, hammayog'iga qimmatbaho yaltiroq toshlar qadalgan emish; shu yuganni solib, oltin yolli otga minib yurish qanday yaxshi bo'ladi!

Shahzoda Ivan yuganga qo'l urishi b'ilanoq, butun qasr karnay, do'mbiralar ovozidan gumburlab ketibdi, qorovullar uyg'onishibdi-da, shahzoda Ivanni ushlab, podsho Usmon huzuriga olib kelishibdi.

– Kimning o'g'lisan, qayerliksan?

– Men shahzoda Ivan bo‘laman.  
– Shahzoda bo‘la turib, uyalmay ot o‘g‘irlab yuribsani? Bu sharmandalikni oddiy qarol ham qilmaydi-ku. Xayr, mayli, agar menga bir xizmat qilsang, gunohingni kechiraman. Podsho Dalmatning go‘zal Yelena degan qizi bor. Uni o‘g‘irlab olib kelsang, oltin yolli otni yugani bilan senga hadya qilaman.

Shahzoda Ivan battar xafa bo‘lib, bo‘ri oldiga kelibdi.

– Senga axir yuganga tegma, deb aytgan edim-ku, shahzoda Ivan. Yana gapimga quloq solmabsan-da, – debdi bo‘ri.

– Kechir meni, bo‘rijon, kechir, – debdi shahzoda Ivan.

– Hadeb kechiraverar ekanman-da... Xayr, mayli, ustimga min.

Shahzoda Ivanni olib bo‘ri yana chopib ketibdi. Podsho Dalmat mamlakatiga yetib kelishibdi. Qasr ichidagi bog‘da go‘zal Yelena enagalari, kanizaklari bilan sayr-u tomosha qilib yurgan ekan. Bo‘ri shahzoda Ivanga:

– Bu safar seni yubormayman, o‘zim boraman. Sen kelgan yo‘limizdan yana qaytib ketaver, men orqangdan tez yetib olaman, – debdi.

Shahzoda Ivan qaytib ketibdi, bo‘ri devordan bir sakrab bog‘ga tushibdi. Buta orqasida poylab o‘tiribdi. Go‘zal Yelena sayr qila-qila charchab, enagalari va kanizaklaridan orqada qolib ketibdi, bo‘ri uni happa ushlab, yelkasiga ortibdi-da, devordan oshib qocha ketibdi.

Shahzoda Ivan yo‘lda ketayotgan ekan, birdan bo‘ri yetib kelibdi, qarasa, ustida go‘zal Yelena o‘tirganmish, shahzoda Ivan xursand bo‘lib ketibdi, bo‘ri unga:

– Tezroq ustimga min, tag'in quvlab kelib qolishmasin, – debdi.

Bo'ri shahzoda Ivan bilan go'zal Yelenani olib orqaga qaytibdi, yashil o'rmonlar, ko'llar, daryolar ko'z oldidan lip-lip o'tib ketaveribdi. Yo'l yurib, yo'l yursalar ham mo'l yurib, podsho Usmon mamlakatiga yetib kelishibdi, bo'ri shahzoda Ivandan:

– Nega indamaysan, xafasan? – deb so'rabdi.

– Xafa bo'lmay bo'ladimi, bo'rijon! Bu sohibjamol qizdan qanday ayrılamani? Go'zal Yelenani otga almashtirib bo'ladimi?

Bo'ri bunday debdi:

– Bu go'zal qizdan seni ayirmayman, uni bir joyga yashirib qo'yamiz, men go'zal Yelenaga aylanaman, meni podsho oldiga olib borasan.

Shundan keyin ular go'zal Yelenani o'rmon ichidagi bir kulbagaga yashirib qo'yibdilar. Bo'ri bir dumalab xuddi go'zal Yelenaga o'xshab qolibdi. Shahzoda Ivan uni podsho Usmon oldiga olib boribdi. Podsho xursand bo'lib ketibdi, unga tahsinlar o'qibdi:

– Rahmat senga, shahzoda Ivan, menga qayliq olib kelganining uchun. Oltin yolli otni yugani bilan ola qol.

Shahzoda Ivan oltin yolli otga minibdi-da, go'zal Yelenani olib kelgani ketibdi. Uni olibdi-da, otga mindiribdi, keyin yo'lga tushibdilar.

Podsho Usmon to'y qilibdi, ertalabdan kechgacha ziyo-fat beribdi, kechqurun yotish paytida go'zal Yelenani yotqxonasiga olib kiribdi, bunday qarasa, yosh xotini o'rniga aftiga bo'ri qarab turganmish. Podsho o'takasi yorilib, kavravotdan ag'darilib tushibdi, bo'ri bo'lsa ura qochibdi.

Bo'ri shahzoda Ivanni quvib yetibdi-da, undan:

- Yana nega xafasan, shahzoda Ivan? – deb so'rabdi.
- Xafa bo'lmay bo'ladimi? Bunday beba ho oltin yolli otni qaqnus qushga almashtirishga hech ko'nglim bo'l-mayabdi.

– Xafa bo'lma, yordam qilaman.

Podsho Afron saroyiga yetib kelishibdi. Bo'ri bunday debdi:

– Bu ot bilan go'zal Yelenani bir joyga yashir, men oltin yolli otga aylanaman, podsho Afron huzuriga meni olib borasan.

Ular go'zal Yelena bilan oltin yolli otni o'rmonga bekitib qo'yishibdi. Bo'ri bir dumalab oltin yolli otga aylanib qolibdi. Shahzoda Ivan uni Afron huzuriga olib boribdi. Podsho xursand bo'lib, qaqnus qushni oltin qafasi bilan birga berib yuboribdi.

Shahzoda Ivan o'rmonga boribdi-da, go'zal Yelenani oltin yolli otga mindirib, qo'liga oltin qafasdag'i qaqnusni olib, hayyo-hut deb o'z yurtiga jo'nabdi.

Podsho Afron esa hadya qilingan otni olib kelishlarini buyuribdi, uzangiga oyog'ini qo'yishi bilan ot bo'rige aylanib qolibdi. Podsho qo'rqqanidan turgan joyida o'zidan ketib yiqilibdi, bo'ri bo'lsa qochib qolibdi, dam o'tmay shahzoda Ivanni quvib yetibdi.

– Endi xayr, menga u tomonlarga borish mumkin emas, – debdi bo'ri.

Shahzoda Ivan otdan tushibdi-da, uch marta egilib ta'zim qilibdi; bo'rige minnatdorchiligini bildirib, tashakkurlar aytibdi. Bo'ri bunday debdi:

– Men bilan bir umrga xayrlashma, yana kuningga yarab qolaman.

Shahzoda Ivan ichida: «Yana nimamga yararding? Hamma orzu-umidlarimga yetdim-ku», deb o'ylabdi. Oltin yolli otga minib, go'zal Yelena, qaqnus uchovlari yo'lga tushibdilar. U uz yurtiga yetib kelibdi, shu yerda tushlik qilmoqchi bo'libdi. Yonida bir-ikki burda non bor ekan. O'tirib nonni yebdilar, buloq suvidan ichibdilar, keyin bir oz dam olgani cho'zilibdilar.

Shahzoda Ivanning endigina ko'zi ilingan ekan, ustiga akalari kelib qolibdi. Ular boshqa joylarda qaqnus qushni qidirib sarson bo'lishib, uni topolmay hafsalalari pir bo'lib qaytishayotgan ekan.

Yo'lda kela turib bunday qarasalar, shahzoda Ivanning ishi yirik, hamma narsa muhayyo. Shunda ular til biriktirib:

– Kel, ukamizni o'ldiramiz, hamma o'lja bizga qoladi,  
– deyishibdi.

Shunday deb, shahzoda Ivanni o'ldiribdilar. Oltin yolli otga minib, qaqnus qushni olib, go'zal Yelenani otga mindirib, unga:

– Uyga borganda og'iz ochmaysan! – deb do'q qilibdilar.

Shahzoda Ivan o'lib yotar, ustida qarg'alar uchib yurar ekan.

Shu payt allaqayerdan bo'ri yugurib kelib qolibdi-da, bitta qarg'ani bolasi bilan ushlab olib:

– Tez uchib borib obihayot bilan shifobaxsh suvdan olib kel, ana shunda bolangni qo'yib yuboraman, – debdi.

Qarg'a noiloj uchib ketibdi, bo'ri bo'lsa uning bolasi-ni ushlab turibdi. Uchib-uchib qarg'a obihayot bilan shifobaxsh suvdan olib kelibdi. Bo'ri shahzoda Ivanning jarohatlariga shifobaxsh suvdan sepgan ekan, jarohatlari bitibdi, obihayot sepgan ekan, shahzoda Ivan tirilibdi.

– Uh, qattiq uqlab qolibman-ku... – debdi shahzoda Ivan.

– Ha, juda qotib uqlagan ekansan, – debdi bo'ri. – Men bo'limganimda sira uyg'onmas eding. Tug'ishgan akalaring seni o'ldirib, butun o'ljalaringni olib ketdilar. Tezroq ustimga min.

Bo'ri shahzoda Ivanni olib, joni boricha chopib ketibdi, ular ikkala akani quvib yetishibdilar. Bo'ri ularni burda-burda qilib tashlabdi, u yer-bu yerda suyaklari sochilib qolibdi.

Shahzoda Ivan bo'rige egilib ta'zim qilibdi-da, u bilan bir umrga xayrashibdi.

Shahzoda Ivan uyiga oltin yolli otta qaytib kelibdi, otasiga qaqnus berib, o'zi go'zal Yelenani qalliq qilib olibdi.

Podsho Berendeyning boshi osmonga yetibdi, o'g'lidan qilgan ishlarini aytib berishni so'rabdi. Shahzoda Ivan o'ljalarni qo'lga tushirishda bo'rining yordam bergenini, uqlab yotganida, akalari o'ldirganini, bo'ri ularni tilka-tilka qilganini aytib beribdi.

Podsho Berendey avval bir oz xafa bo'libdi, keyin tinchlanibdi.

Shahzoda Ivan go'zal Yelenaga uylanibdi, ular yoshlarini yashab, oshlarini oshab, g'am nimaligini bilmay o'tishibdi.

## Opa-uka Alyonushka bilan Ivanushka

Bor ekan-da, yo'q ekan, bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Ularning Alyona degan qizlari va Ivan degan o'g'ilari bor ekan. Chol-u kampir farzandlarini Alyonushka va Ivanushka, deb erkalar ekanlar.

Chol-u kampir vafot etib, Alyonushka bilan Ivanushka yetim qolishibdi.

Alyona ishga ketganida ukasini ham o'zi bilan birga olib ketar ekan. Yo'l uzoq ekan. Ular keng dala bo'ylab ketishayotganda, Ivanushkaning suv ichgisi kelibdi.


- Opa, suv ichgim kelyabti.
- Sabr qil, ukaginam, quduqqa yetaylik.

Ular ketishaveribdi – quyosh tikkada, quduq uzoqda, kun jazirama ekan; terlab tinkalari quribdi. Bir yerda yotgan sigir tuyog'i suvgaga to'la ekan.

- Alyonushka, opajon, tuyoqdagiga suvni ichaman!
- Ichma, ukajon, buzoq bo'lib qolasan!

Ukasi gapga qulqoq solibdi.

Ular yana ketaverishibdi. Quyosh tikkada, quduq uzoqda, kun jazirama ekan; terlab tinkalari quribdi. Bir yerda yotgan ot tuyog'i suvgaga to'la ekan.



- Alyonushka, opajon, tuyoqdagi suvni ichaman!
- Ichma, ukajon, toychoq bo'lib qolasan.

Ivanushka xo'rsinib qo'yibdi, ular yana ketaverishibdi.

Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Qu-yosh tikkada, quduq uzoqda, kun jazirama ekan; terlab tinkalari quribdi. Bir yerda yotgan echki tuyog'i suvgaga to'la ekan.

- Opa, darmonim qolmadi, tuyoqdagi suvni ichaman,
- debdi Ivanushka.

- Ichma, ukajon, uloqcha bo'lib qolasan.

Ivanushka endi gapga qulq solmay, echki tuyog'ida-gi suvni ichibdi. Ichibdi-da, uloqcha bo'lib qolibdi.

Alyonushka ukasini chaqiribdi, Ivanushka o'rning uning orqasidan oppoq uloqcha chopib kelibdi.

Alyonushka ko'zlaridan duv-duv yosh to'kibdi, pichang g'arami tagiga o'tirib olib, yig'layveribdi, echkicha bo'lsa uning yonida dik-dik sakrarmish.

Shu payt ularning yonidan bir savdogar o'tib qolibdi:

- Do'ndiq qiz, nega yig'layapsan? – deb so'rabdi u.

Alyonushka o'z boshiga tushgan falokatni unga so'z-lab beribdi.

Savdogar unga:

- Menga turmushga chiqsang seni oltin-kumushlarga ko'mib tashlayman, uloqcha ham biz bilan birga turadi, – debdi.

Alyona o'ylab-o'ylab, oxiri rozi bo'libdi.

Ular tinch-totuv yashay boshlabdilar; uloqcha ham ularnikida turib, Alyona bilan bir kosadan ovqat icharkan.

Kunlardan bir kuni savdogar uyida yo'q paytda qayqdandir bir jodugar kelib qolibdi. Alyonushkaning derazasi tagiga boribdi-da, daryoga borib cho'milib kelaylik, deya mulozamat qilibdi.

Jodugar Alyonushkani daryo bo'yiga olib kelibdi. Bir-dan unga tashlanib, bo'yniga tosh bog'labdi-da, daryoga cho'ktirib yuboribdi.

O'zi bo'lsa Alyonushkaning kiyimlarini kiyib, yasanibdi-da, uning uyiga kelibdi. Jodugarni hech kim tanimabdi. Savdogar ham tanimabdi.

Faqat uloqcha hamma sirdan xabardor ekan. U boshini osiltirib, suv ham ichmabdi, ovqat ham yemabdi. Erta-yu kech daryo bo'yida yurib:

– *Alyonushka, opajon!*  
*Suzib chiqing qirg'oqqa...*

– deb chaqiraveribdi.

Buni jodugar sezib qolibdi-da, eriga: «Uloqni so'y!..» – deb uni hol-joniga qo'ymabdi.

Savdogarning uloqchaga rahmi kelibdi, unga o'rghanib qolgan ekan-da. Jodugar bo'lsa: so'yasan, deb xarxasha qilarmish; axiri bo'lmagach, savdogar:

– Mayli, o'zing so'ya qol... – debdi.

Jodugar katta gulxan yoqishni, doshqozonlarni osishni, po'lat xanjarlarni charxlashni buyuribdi...

Uloqcha umri oz qolganini bilib, tutingan otasiga:

– O'lish oldidan meni daryo bo'yiga qo'yib yubor, suv ichib, ichaklarimni ho'llab olay, – debdi.

– Mayli, bora qol.

Uloqcha chopqillab daryo bo'yiga boribdi-da:

– *Alyonushka, opajon!*  
*Qirg'oqqa chiqqin shu on.*  
*Katta gulxan yoqishgan,*  
*Qozonda suv qaynagan,*  
*Po'lat pichoq qayralgan,*  
*So'yishga ular shaylangan, –*

deb zor-zor yig'labdi.

Alyonushka bo'lsa daryo tubidan ukasiga javob qaytaribdi.

– *Oh, ukajonim, Ivan!*  
*Og'ir tosh g'arq etmoqda,*  
*Oyoqqa o't chirmashgan,*  
*Qum ko'ksimni ezmoqda.*

Jodugar uloqchani izlab, hech topolmabdi, keyin xizmatkorini yuborib, unga:

– Bor, uloqchani topib kel, – debdi.

Xizmatkor daryo bo'yiga borsa, sohilda bir uloqcha uyoqdan-buyoqqa chopib:

– *Alyonushka, opajon!*  
*Qirg'oqqa chiqqin shu on.*  
*Katta gulxan yoqishgan,*  
*Qozonda suv qaynagan,*  
*Po'lat pichoq qayralgan,*  
*So'yishga ular shaylangan, –*

deb zor-zor yig'larmish.

Daryo tubidan unga shunday javob kelarmish:

– *Oh, ukajonim, Ivan!*

*Og'ir tosh g'arq etmoqda,*


*Oyoqqa o't chirmashgan,*

*Qum ko'ksimni ezmoqda.*

Xizmatkori uyga chopib borib, daryo bo'yida eshitganlarining hammasini savdogarga birma-bir aytib beribdi. Odamlarni to'plashib, daryo bo'yiga borishib-di-da, ipak to'rlarni tashlashib, Alyonushkani daryodan chiqarishibdi. Bo'ynidagi toshni olib tashlab, buloq suviga yuvintirishib, yaxshi kiyimlar kiygazishib yasan-tirishibdi. Alyonushka ancha jonlanib, avvalgidan ham go'zal bo'lib ketibdi.

Uloqcha bo'lsa sevinganidan uch marta o'mbaloq oshgan ekan, Ivanushkaga aylanib qolibdi.

Shundan keyin yovuz jodugarni otning dumiga bog'-lab, keng dalaga olib chiqib, jazosini berishibdi...



## Askar bilan malika

Qadim zamonda bir badjahl malika yashagan ekan. Unga hech nima yoqmas ekan. O'tirganni o'poq, turganni so'poq deb hech kimni hol-joniga qo'ymas ekan. Har kuni ertalabdan kechgacha malikaning ko'ngliga yoqmagarlarning hammasini – xoh aybdor bo'lsin, xoh aybsiz – savalashar, kaltaklashar, do'pposlasharkan: vaholanki, malikaning ko'ngliga hech kim hech qachon yoqa olmas ekan. Bu hol bora-bora odat tusiga kirib qolibdi. Ayniqsa, malika atrofida xizmat qiluvchilarning sho'ri qurir ekan. Saroydag'i cho'ri qizlar, oqsochlari, yo'lakda xizmat qiluvchilar, ozoda va qora ish bilan shug'ullanuvchi mujiklar, aravakashlar-u kiyim tikuvchi xotinlar har kuni ertalab kechagi yegan xipchin va kaltakdan momataloq bo'lgan badanlarini qashilab uyg'onishar va bugungi «ulush»larini olishga tayyorlanisharkan.

Bir kuni malika sayr qilgani bog'ga chiqibdi, bu payt bir askar eshik oldida qorovullikda turgan ekan. U malikani ilgari hech ko'rmagan ekan, ko'rib-di-yu: «Obbo sen-yel» – deb o'ylabdi ichida

va miyig'ida kulib qo'yibdi. Askarning qorovullikka birinchi marta turishi ekan, shuning uchun, malika oldida irshayish ham, xo'mrayish ham, unga xushomad qilish ham mumkin emasligidan bexabar ekan: bariga malikaning fig'oni chiqib ketarkan. Hozir ham u askarga qarab:

– Nega tirjayasan? – deb so'rabdi.

Oddiy bir askar kimsan – malikadek oliy zotga qanday javob bera olardi, deysiz: u hech nima deya olmabdi, buning o'rniga – bexosdanmi, ahmoqlik qilibmi – yana tirjayibdi. Buni ko'rgan malika, azbaroyi qahri qaynaganidan, avvaliga hech nima deya olmabdi. Keyin o'z a'yonlaridan birini chaqiribdi.

– Mana bu askarga, – deb buyuribdi u, – har kuni ertalab yigirma tayoqdan urilsin.

Shundan beri askar ertalab o'rnidan turgan zahoti har kuni – begim kuni ham, bayramda ham hech kanda qilmay «nahorga» yigirma tayoqdan yeydigan bo'libdi. Sho'rlik bu azobdan eti suyagiga yopishib qolibdi – uning kaltaklanadigan sog' joyi qolmabdi. Malika esa, uni o'sha kuniyoq unutib yuborgan edi, chunki g'azabini boshqalarga ham sochishi kerak-da.

Sho'rpeshona askarning qo'lidan nima ham kelardi? Bu turishda kaltak zarbidan o'lib ketishi turgan gap. U ko'ziga dono ko'ringan odamlarga zorlanib, ulardan maslahat so'rabdi, lekin u donolarning hammasi bir xilda:  
– Sabr qil, – deb maslahat berishibdi, – malikaga qarshi nima ham qila olarding, o'lgudek zahar xotin bo'lsa...

Askar donolar maslahatini eshitibdi-da, o'zicha: e, sizlarning joningiz achisharmidi, kaltakni men yeganimdan keyin, deb o'ylab, tentakning oldiga maslahatga boribdi.

Qo'shin orasida bir tentak bor ekan, askarlar uni o'z oshxonalaridagi ovqat bilan boqishar, eskirgan kiyimlarini unga berib turishar ekan.

Askar o'z dardini shu tentakka so'zlab berishga boribdi-yu, keyin qilgan ishidan pushaymon bo'lib:

– E, menga nimayam yordam qila olarding! – debdi askar. – Bir tentak bo'lsang!

Shunda tentak xaxolab kulib yuboribdi.

– Nega yordam berolmas ekanman! Agar yordamim tegmasa, ziyonim ham tegmaydi, qandoq bo'lsang shundoqligingcha qolasan. Menga bir chaqa ber!

Askar unga bir chaqa chiqarib beribdi. Tentak uni shahar chakkasiga boshlab ketibdi. Ular juda uzoq yurishibdi, shaharning hashamatli binolari orqada qolib, atrofida nuqul g'aribona kulbalar ko'rina boshlabdi.

«Eh, attang, – deb o'ylabdi askar, – bir chaqadan ayrilganga o'xshayman, juda uzoqqa ketib qoldik».

Ular bir xaroba uy oldida to'xtashibdi. Bu yerda bir etikdo'z xotini bilan turarkan. Etikdo'zning xotini mali-kaga xuddi egizak opa-singildek judayam o'xshab ketarkan: agar uni malika bilan yonma-yon qo'yib qarashsa, qay biri malika-yu qay biri etikdo'zning xotini – sira farq qilib bo'lmas ekan.

Etikdo'z odamlardan, masalan, savdogar, kosib, gumashtalardan bir chaqadan olib, xotinini ko'rsatar ekan, askarlar-u mayib-majruhlardan pul olmas ekan, keyin topgan puliga aroq ichib kayf qilarkan.

Tentak etikdo'zga bir chaqa to'labdi, askardan esa etikdo'z haq olmabdi. Ular xonaga kirishibdi. Qarashsa, karavotda bir ayol uqlab yotganmiss, askar bir seska-

nib, qaqqayib turib qolibdi: karavotda yotgan ayol xuddi quyib qo'ygandek malikaning o'zginasi emish.

– Agarda shu xotin malika bo'lganidami, – debdi tentak, – seni kaltaklamasdi.

Askar ham uning fikriga qo'shilib debdi:

– Ha, kaltaklamasdi! Afsus, oddiy etikdo'zning xotini-da. Agar malika bo'lgandayam zo'r malika bo'lardi-da!

Tentak kulib yuborib debdi:

– Undan binoyiday malika chiqadi!

Askarning ko'ngli ko'tarilibdi.

– Ie, qanaqasiga?

Tentak tag'in xaxolab kulib yuboribdi, shunda askar, etikdo'zning xotini uyg'onib ketmasin, deb ahmoqni tez uydan olib chiqibdi.

Ular shaharga qaytishibdi.

Shunda tentak:

– Bugun tunda qayerda qorovullik qilasan? – deb so'-rabdi askardan.

– Qasrda, malikaning ko'shkida.

– Bo'lmasa, gapni eshit, – debdi unga tentak, – men kechasi oldingga etikdo'zning xotinini olib kelaman!

– Nimaga endi? Etikdo'z sezib qoladi-ku!

– E, qayoqda, – debdi tentak. – Etikdo'z hech nima-ni sezmaydi. Kun bo'yи ishlab itday charchaydi, keyin sharob ichib tarrakdek qotib uxlaydi, ustiga qiyshiq mix qo'yib to'g'rilasang ham sezmaydi.

– Ayt-chi, boshimga uramanmi uning xotinini?

– Ie, qanaqasan o'zi! Tag'in meni tentak deyishadi-ya!

Malika uxbab qolgan bo'ladi, sen g'aflatda yotgan malikan ni olib chiqib berasan, men esa senga etikdo'zning mast

uyquda yotgan xotinini tutqazaman. Keyin men malika-ni etikdo'zning uyiga olib ketaman, sen etikdo'zning xotinini, uyg'onib qolmasidan, darrov malikaning ko'shki-ga olib kirib yotqizib qo'yanan.

Askar o'ylanib qolibdi.

– Qo'rqinchli-ku bu? Malikaning huzurida hatto bosh qashish ham mumkin emas-u, sen esa uni etikdo'zning uyiga olib ketmoqchi bo'lyapsan! Birdan uyg'onib ketib, jinoyatni sezib qolsa bormi, naq ikkovimizning ham kallamiz ketadi-ya!

Tentak boshqacha reja tuzib qo'ygan ekan:

– Be, qayoqdan deysan! Malika ertalabdan kechgacha tinmay g'azablanib, rosa charchaydi, shuning uchun kechasi xurrakni otib, og'zidan ko'pik sochib uxlaydi. To vaqt-soati yetmaguncha uyg'onmaydi. Mabodo payqab qolganida ham hechqisi yo'q: meni tentak hisoblashib, javobgarlikka tortisha olmaydi.

Askar uning fikriga qo'shilibdi.

– Obbo sen-ye! Tentak bo'lsang ham farosating zo'r ekan! Gaping ma'qul. Mayli, qorong'i tushganida olib kelaver etikdo'zning xotinini.

Tentak kechasi bilan zir yugurib ko'zlagan rejasini amalga oshiribdi: etikdo'zning xotinini qasrga olib kelib ko'sh akka yotqizibdi, malikani esa, etikdo'znikiga olib ketibdi – lekin malika ham, etikdo'zning xotini ham uyg'onishmabdi.

Tong otganda, birinchi bo'lib etikdo'z uyg'onibdi, uyg'onib yonida yotgan xotinining biqiniga turtibdi. Kechqurungi mayxo'rlikdan keyin tomog'i qaqrab suv ichgisi, tamaki tutatgisi kelibdi, buning ustiga, boshi lo'q-lo'q og'riyotganmish: bunaqa paytda unga xotini

suv olib kelishi, mundshtugini topib berishi, erini yupatuvchi biron iliq so'z aytishi kerak-da.

Malika turtkidan uyg'onib, ko'zini ochibdi, hech nima-ga tushunmay yana uyquga ketibdi.

Etikdo'z: «Nima, eshitmadingmi?» – demoqchi bo'l-gandek yana turtibdi.

– Tur, xotin! – debdi etikdo'z. – Vaqt bo'ldi!

Malika yana ko'zini ochibdi.

– Qanaqa vaqt? – deb so'rabdi u. – Kimsan o'zing?

Etikdo'z ham:

– O'zing kimsan? – deb so'rabdi undan.

Shunda malika bir shang'illab beribdi:

– Voy yaramas-ey! Voy badbaxt-ey! Bilmaysanmi, axir men malikaman-ku!

Etikdo'z karavotdan «dik» etib turib ketibdi:

– Sen rostdanam malikaga o'xshaysan: hech bir ishni bilmaysan. Bunaqa karam sho'rvani it ham ichmaydi.

Shundan keyin u: ovqat pishirishni bilmaganning ja-zosi mana bunaqa bo'ladi, deb xotinini do'pposlabdi.

Malika butunlay yurak oldirib qo'yibdi: u etikdo'z ro'pa-rasiga cho'qqayib o'tirib, qo'rqqanidan dag'-dag' titrarmish.

Etikdo'z tushlik ovqatdan keyin karavotga yotibdi:

– Xotin, – debdi, – taroqni olib sochimni tara, men bir oz mizg'iymen.

Malika etikdo'zning sochini taray boshlabdi: iloj qan-cha, yo'q desa yana kaltak yeydi.

Ertasi kuni etikdo'z unga kir yuvdiribdi. Umrida kir yuvish nimaligini bilmagan malikaning momiq qo'llari shilinib ketibdiyamki, ammo kiyim oqarmabdi.

Malika etikdo'zning uyida shu zaylda uch kun yashabdi. Endi gapni etikdo'zning xotinidan eshiting: u malika ning to'shagida uyg'onibdi, ko'zini ochib atrofga qarasa – hammayoq shinam, ozodamish. Karavotda par to'shak, par yostiqlar, kiyimlar shoyi, kimxobdan, ko'zgular yaraqlarmish, ko'shk sarishta, har yoqdan gullarning muattar hidi gup-gup kelib turganmish.

«Voy, jannatga tushib qolibmanmi? – deb o'ylabdi etikdo'zning xotini. – Bu yerdagi narsalarni umrim bino bo'lib ko'rмаганман».

Shu mahal malikaning oromgohiga to'rtta oqsoch qiz kirib kelibdi-yu, malikaga yaqinlashishga yuraklari dov bermay, ostonada turib qolishibdi.

– Sizlarga nima kerak? – deb so'rabdi etikdo'zning xotini.

Qizlar shunday javob berishibdi:

– Yaxshi yotib turdingizmi, malika zoti oliyalari! Biz sizni yuvintirib, kiyintirgani keldik!

Etikdo'zning xotini bo'lsa:

– Men o'zim kiyinaveraman, nima, sholmidim! – debdi. Lekin qizlar chiqib ketmasdan, turaverishibdi.

Etikdo'zning xotini ularga debdi:

– Nima qilib turibsizlar? Qiladigan ishlaringiz yo'qmi, ishyoqmaslar?

Qizlar bo'lsa karavot yonidagi kursiga ko'z qirlarini tashlab-tashlab qo'yisharmish: kursida tayoq bilan qamchi yotgan ekan.

– Bizni qachon savalaysiz, onaxon? – deb so'rashibdi qizlar. – Hozirmi yo keyinroqmi?

– Nima uchun endi sizlarni savalash kerak ekan? Jo-ningiz og'riydi-ku!

– Shuning uchunki, malika zoti oliyalari, siz g'azab-lanishingiz kerak!

Ana shunda etikdo'z xotinining jahli chiqib ketibdi:

– Nima, jinni-minni bo'lganmisizlar! Yo'qolinglar ko'-zimdan, borib ishlaringni qilinglar.

Qizlar chiqib ketishibdi. Shunda edikdo'zning xotini o'rnidan turib, yuvinibdi, kiyinibdi-da, oshxonaga chiqibdi, u yerda teshik kulchalar yeb, choy ichibdi. Bu yerda erkag-u ayol oshpazlar etikdo'z xotiniga yuraklari dag'-dag' titrab, hurmat-ehtirom bilan xizmat qilisharmish, u istagancha qand qo'yisharmish, chunki saroydagi har qaysi xizmatkor uni malika deb o'ylagan ekanda. Natijada, etikdo'zning xotini o'zini malika deb hisoblay boshlabdi.

«Nima balo, – debdi u ichida, – malikaman shekilli? Rostdanam shunaqaga o'xshaydi. Ha, mayli, malika bo'-lib bir oz yashab ko'ray, etikdo'z o'zimning erim – qochib ketmaydi, qaytaga meni sog'inib, ko'proq yaxshi ko'radi. Malika bo'lish osonroq har qalay!»

Mana, u bir kun malika bo'lib yashabdi, ikki kun yashabdi. Ertalabdan kechgacha uning orqasida bir mansabdor yurib, malikaning barcha buyrug'-u istaklarini yozib borarmish va ado etarmish. Malika endi bú mansabdorga ko'nikib ham qolibdi: kimda-kim malikaga biron iltimos yo arz bilan yuzlansa, u faqat qo'li bilan ishora qilib:

– Orqamda kelayotganga ayt, u bajaradi! – dermish-u yana yo'lida ketaverarmish.

Ketaturib u nuqlu pista chaqarmish. Pistani mansabdor qisimida ushlab, qo'lini malikaga uzatgancha ergashib borarmish.

Bu mahal bizning askar yog'och uycha oldida qorovullikda turgan ekan. Qarasa – etikdo'z xotini-malika sayr qilib yurib shu tomonga kelayotganmish. Askar boyagi-boyagiday har kuni kaltak yeb turarmish, bugun ertalab ham uni kaltaklashgan ekan.

Askar etikdo'z xotini-malikaga yalt etib qarab, qoving'i solib olmoqchi bo'libdi-yu, lekin kutilmaganda tirjayib qo'yibdi.

Etikdo'z xotini-malika undan so'rabdi:

- Nimaga tirjaysan? Meni ko'rib quvonib ketdingmi?
- Ha, onaxon! – deb javob qilibdi soldat.
- Nega endi quvonib ketding – senga hech qanday yaxshilik qilmagan bo'lsam. Xo'sh, nima tilaging bor?
- Tilagim shuki, onaxon, meni kaltaklashni bas qilishsin. Bir yildan oshdi, har kuni ertalab tong otar-otmas meni kaltaklashadi, etim shilinib, quruq ustixonim qoldi.
- Qaysi gunohing uchun kaltaklashadi?
- Gunohim – jilmayganim, onaxon.
- Orqamda kelayotganga ayt, bundan buyon seni kaltaklashmasin.
- E, yo'q, onaxon, – debdi askar etikdo'z xotini-malikaga, – orqangda kelayotganga aytmayman, sen hamma-mizdan oldindasan, o'zing unga aytib buyruq chiqartir.

Malika askar oldiga kelib to'xtabdi:

- Obbo sen-ey, judayam qaysar ekansan-a! Mayli, o'zim farmon chiqarib, o'zim imzo chekaman – seni boshqa kaltaklashmaydi!

- Buyur, onaxon, boshqalarni ham kaltaklashmasin!
- Kaltak yeydiganlar ko'pmi bu yerda?
- Deyarli hammani kaltaklashadi, onaxon. Odamlar saroy xizmatida adoyi tamom bo'lishdi-yu, lekin tishlарini tishlariga qo'yib chidab kelishyapti.

– Nima, jinni-minni bo'lishganmi ular? – deb so'rabdi etikdo'z xotini-malika.

– Bilolmadim, onaxon!

Etikdo'z xotini-malika o'sha kuniyoq, mening saltanatimda bundan buyon bironta odamni hatto chertishga ham hech kimning haddi sig'maydi, degan ma'noda farmon chiqaribdi. Askarlarga bo'lsa yigirma besh so'mdan pul, buning ustiga yarim chelakdan ichimlik berishni amr etib, uch kun o'ynab-kulishlariga ijozat beribdi.

Etikdo'z xotini o'z hukmronligining uchinchi kuniga kelganda erini sog'inib qolibdi. «Borib, uzoqroqdan bir qaray-chi, – deb o'ylabdi u, – erim nima qilayotgan ekan, balki meni yo'qotib qo'yganidan g'amga botib o'tirgandir».

Malika yo'lga otlanibdi-da, saroydan chiqib, to'g'ri etikdo'zning kulbasi tomon yo'l olibdi, mansabdor zot uning orqasidan boribdi.

Mana, malika uzoqda o'zining g'aribona kulbasini ko'ribdi. Xuddi shu payt darvozadan ko'chaga etikdo'z chiqibdi, lekin u bir o'zi emasmish, yonida boshqa bir biqqidakkina ayol ham bormish, buning austiga u ayol husn-u jamol, qadd-u qomatda etikdo'zning xotinidan qolishmasmish, undan keyin, etikdo'zning chehrasida hech qanday g'am-tashvish alomati ko'rinnabdi.

Etikdo'z xotini – malika bu holni ko'rib shang'illab ketibdi:

– Voy behayo, voy yashshamagur go'rso'xta!! – deb u erining gardaniga bir musht tushirgan ekan, erining boshidagi kepkasi uchib ketibdi.

Etikdo'z esankirab qolibdi: goh unisi, goh bunisiga tikilarmish-u ikkovi ham ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshaydigan bu ayollarning qay biri o'zining xotini ekanligini hech bilolmasmish. Faqat etikdo'z xotini – malika uning yelkasiga yana bir musht tushirganidan keyingina etikdo'z o'z xotinini tanib olibdi.

Etikdo'z xotini erining qo'lidan ushlab, uyg'a yetaklab kirib ketibdi, u o'zining sultanat hokimasi ekanligini shu zahotiyoy unutibdi.

Malika bo'lsa, etikdo'z xotinini kuzatib kelgan mansabdorga o'qrayib qarab, tishlarini g'ijirlatipti-da, u ham o'z uyiga, saroyga qarab yo'l olibdi.

U saroyga kelib, endi odamlarni urish, savalash, kaltaklash, do'pposlash mumkin emasligini (bu haqda go'yo o'zi farmon chiqarganini) bilib, g'azabdan qoni qaynab ketibdi.

Malika bironta odamni kaltaklab xumordan chiqish maqsadida: «Hoy, kim bor?» – deb hayqirgan ekan, osh-paz xotin kirib kelibdi, malika uni urmoqchi bo'lib qo'lini ko'taribdi, ko'taribdi-yu birdan o'z qo'llarining kir yuvaverib, dag'alashib qolganini, ishlayverib qavarib ketganini ko'ripti-da, qo'lini tushiribdi, hech kimni urmabdi.

U etikdo'zning uyida qanday yashaganini eslabdi: malika yana ikkinchi marta etikdo'zga xotin bo'lib qolmaslik uchun, o'sha farmonni kuchda qoldiribdi.

Askar bilan tentak o'z qilmishlaridan rosa suyunishibdi. Ammo lekin malikaga ishonch yo'q, bo'lmaydi ham.

## **Qurbaqa malika**

Qadim zamonda bir podshoning uch o'g'li bor ekan. Og'illar balog'atga yetganlaridan keyin podsho ularni bir yerga yig'ib, shunday debdi:

– Suyukli bolajonlarim, hali hozircha ko'zimda nur, belimda quvvatim bor, sizlarni uylantirib, nabiralar ko'rsam deyman.


O'g'illar otalariga:

– Ixtiyor sizda, otajon, – deb javob berishibdi. – Bizni kimga uylantirmoqchisiz?

– Gap bunday, o'g'lolarim, bittadan kamon-u o'q olinglar, yaydoq dalaga chiqib, otinglar; o'qlaring qayerga borib tushsa, taqdirlaringni o'sha yerdan izlanglar.

O'g'illar otalariga ta'zim qilishib, bittadan o'q olib, yaydoq dalaga chiqishibdi. Kamonni tortib, otishibdi. Katta o'g'ilning o'qi bir zodagon hovlisiga tushibdi. O'qni uning qizi olibdi. O'rtancha o'g'ilniki savdogarning hovlisiga tushibdi, uni savdogarning qizi olibdi.

Kichik o'g'il – shahzoda Ivanning o'qi esa havoga ko'tarilib-di-yu, o'zi ham bil-magan tomonga uchib ketibdi. Yigit



ketaveribdi, ketaveribdi, bir botqoq bo'yiga yetib kelib-di. Qarasa, bir qurbaqa uning o'qini ushlab o'tirganmish. Shahzoda Ivan unga qarab:

– Qurbaqajon, qurbaqa, mening o'qimni ber, – debdi.

Qurbaqa esa unga:

– Menga uylansang beraman, – debdi.

– Nimalar deyapsan, qanday qilib senga uylanaman, qurbaqajon?

– Nachora, peshonangda bori shu ekan-da.

Shahzoda Ivan bir oh tortibdi-da, qurbaqani olib, uygaga jo'nabdi.

Podsho uchta to'y qilibdi: katta o'g'ilni zodagonning, o'rtanchasini – savdogarning qiziga uylantiribdi, sho'r peshona shahzoda Ivanni esa qurbaqaga qo'shibdi.

Bir kuni podsho o'g'illarini chaqirib:

– Qani ko'ray-chi, qaysi kelinim chevar ekan. Menga ertalabgacha bittadan ko'ylak tikib berishsin, – debdi.

O'g'illar otalariga ta'zim qilib, chiqib ketishibdi.

Shahzoda Ivan uyga qaytgach, boshini quyi solibdi. Qurbaqa sakrab-sakrab kelibdi-da:

– Nima gap, shahzoda Ivan, nega boshing egildi? Yoki biron musibat tushdimi? – deb so'rabdi.

– Otam, kelinim menga ertalabgacha ko'ylak tikib keltirsin, deb buyurdi.

Qurbaqa esa:

– Qayg'urma, shahzoda Ivan, kechasi yotib o'yla, ertalab turib so'yla, deganlar, – debdi.

Shahzoda Ivan yotibdi, qurbaqa esa sakrab eshik oldiga chiqibdi-da, qurbaqa terisini tashlab, oqila Vasilisaga

aylanibdi, u shunday go'zal emishki, ertakda ham buna-qasi yo'q ekan.

Oqila Vasilisa chapak chalib, qichqiribdi:

– Oyijonlar, enagalar, tez-tez bo'linglar, shaylaning-lar! Menga ertalabgacha o'z otam ustida ko'rgan ko'yak-dan tikib beringlar.

Shahzoda Ivan ertalab uyg'onib qarasaki, qurbaqa yana polda sakrab yuribdi. Stol ustida esa sochiqqa o'ralgan ko'yak turganmish. Shahzoda Ivan suyunib ko'yakni olibdi-da, otasiga eltibdi. Shu choq otasi katta o'g'illaridan sovg'a qabul qilayotgan ekan. To'ng'ich o'g'il ko'yakni yozibdi, podsho ko'ribdi-yu:

– Bu ko'yakni motam kuni kiyish kerak, – debdi.

O'rtancha o'g'il ko'yakni yozgach, podsho:

– Buni faqat hammomga kiyib borish mumkin, – debdi.

Shahzoda Ivan ko'yakni yozibdi. U tilla-yu kumush ipler bilan ajib, jimgimali gullar solib tikilganmish. Pod-sho bir qarabdi-yu:

– Ha, buni ko'yak desa bo'ladi – bayramda shuni ki-yish kerak, – debdi.

Aka-ukalar uylariga tarqalishibdi. Ikki kattasi esa bir-biriga:

– Yo'q, biz shahzoda Ivanning xotini ustidan behuda kulganga o'xshaymiz: u qurbaqa emas, qändaydir ayyor, – dermish.

Podsho yana o'g'illarini chaqirtiribdi:

– Kelinlarim nonushtamga non yopishsin, qaysisi yaxshi pazandaligini bilmoxchiman, – debdi.

Shahzoda Ivan boshini egib uyiga kelibdi. Qurabaqa undan:

– Nega xafa ko'rinasan? – deb so'rabdi.

Shahzoda esa:

– Podsho nonushtaga kelinlariga non yopib kelishni buyurdi, – deb javob beribdi.

– Diqqat bo'lma, shahzoda Ivan, kechasi yotib o'yla, ertalab turib so'yla, deganlar.

Avvaliga qurbaqa ustidan kulgan anavi ikki kelin endi xizmatkor kampirlardan biriga, borib qaragin-chi, qurbaqa nonni qanaqa yoparkin, deb jo'natishibdi.

Qurbaqa quv ekan, buni darrov payqabdi. Xamir qoribdi, pechning ustini buzibdi-da, bor xamirni o'yilgan joyga ag'daribdi.

Xizmatkor kampir halloslab kelib, ko'rganlarini ikki kelinga aytibdi, ular ham xuddi shunaqa qilibdi.

Qurbaqa esa bir sakrab tashqariga chiqibdi-da, go'zal Vasilisaga aylanib, chapak chalibdi:

– Oyijonlar, enagalar, tez-tez bo'linglar, ishga tushinglar! Nonushtaga men otamnikida yeb yurgan oq nonga o'xshagan yumshoq, oppoq non yopinglar, – debdi.

Shahzoda Ivan ertalab uyg'onibdi, qarasa, stol ustida jimjimador bezaklar solingan non turgan mish: nonning yon tomonlari guldor, ustida esa qopqali shaharlar surati bor emish.

Shahzoda Ivan sevinib ketibdi, nonni sochiqqa o'rabi-da, otasiga olib boribdi. Shu payt otasi katta o'g'llaridan nonni qabul qilib olayotgan ekan. Ularning xotinlari xizmatkor kampir aytganidek, xamirni pechga ag'dar-

ganlari uchun non kulga belanib, kuyuk chiqibdi. Podsho katta o'g'lidan nonni olibdi-yu uyoq-buyog'ini qarabdi va xizmatkorlarga jo'natibdi. O'rtancha o'g'ildan ham olibdi-yu, yana o'sha yoqqa yuboribdi. Shahzoda Ivan uzatishi bilan:

– Mana buni non desa bo'ladi. Bunaqasini bayramda yeyish kerak, – debdi.

Shundan keyin podsho uchchala o'g'liga, ertaga ziyo-fatga kelinlarim bilan kelinglar, deb buyuribdi.

Shahzoda Ivan yana diqqat bo'lib, boshini egib, uyg'a qaytib kelibdi. Qurbaqa polda sakrab:

– Vaq-vaq, shahzoda Ivan, nimaga xafasan? Yoki otangdan biron yomon gap eshitdingmi? – deb so'rabdi.

– Qurbaqajon, nega qayg'urmayin axir? Otam ziyo-fatga kelinimni olib kel, dedi, axir seni odamlarga qandaoq ko'rsataman.

Qurbaqa esa:

– Xafa bo'lma, shahzoda Ivan, ziyofatga bir o'zing boraver, men ketingdan boraman. Qasir-qusur, gumburlagan ovozni eshitsang, qo'rqib yurma tag'in. Sendan so'rashsa: «Mening qurbaqam shaloq aravasida kelyapti», degin.

Shahzoda Ivan bir o'zi boribdi. Akalari bashang kiyin-gan, yasan-tusanni o'rinlatgan, atir-upalar, surmalarni surtib, o'zlariga oro bergen xotinlari bilan kelibdi. Ular shahzoda Ivanning ustidan kula boshlashibdi.

– Sen nega bir o'zing kelding? Hech bo'lmasa dastro'-molchaga o'rab olib kelmaysanmi? Bunaqa sohibjamolni qayoqdan topding? Botqoqda rosa yurganga o'xshaysan.

Podsho o'g'illari, kelinlari, mehmonlari bilan zarang stolga yozilgan guldor dasturxon atrofiga o'tirishibdi. Nogahon qaldir-quldur, gumbur-gumbur boshlanib, butun saroy larzaga kelibdi. Mehmonlarning o'takasi yorilib, o'rinalidan turib ketishibdi, shahzoda Ivan esa:

– Qo'rqmanglar, aziz mehmonlar: bu – mening qurbanqam, shaloq aravasida kelyapti, – debdi.

Shu payt podsho eshigi oldiga oltita oq ot qo'shilgan zarrin kareta uchib kelibdi, undan go'zal Vasilisa tushayotgan emish. Egnida yulduzchalari yiltillayotgan havorang ko'ylak, boshida yarqiragan oy, shunday go'zal, barno emishki, bunaqasi faqat ertaklarda bo'larkan. U shahzoda Ivanning qo'lidan ushlabdi-da, guldor dasturxonlar yozilgan zarang stol yoniga boshlab boribdi.

Mehmonlar o'tirishib, ovqatlanishga, ichishga, o'yinkulgi qilishga tushishibdi. Go'zal Vasilisa shahzoda Ivanni o'yinga tortibdi. U shunday raqsga tushib, shunday o'ynabdi, shunday gir-gir aylanibdiki, hamma hangmang bo'lib qolibdi. So'l qo'lini siltagan ekan, to'satdan ko'l paydo bo'libdi, o'ng qo'lini siltagan ekan, ko'lda oqqushlar suza boshlabdi. Podsho bilan mehmonlar angrayib qolishibdi.

Katta kelinlar o'yinga tushishibdi: bir qo'llarini siltashsa, dasturxonagi narsalar sochilib, sachrab mehmonlarni bulg'abdi, boshqa qo'llarini siltashsa, suyaklar har tomonga uchib, bittasi podshoning ko'ziga tegibdi. Podshoning jahli chiqib, ikkala kelinini haydab yuboribdi.

Shu vaqtda shahzoda Ivan sekin chiqibdi-da, uyiga chopibdi, qurbaqa terisini topib, pechga tashlabdi-yu, yoqib yuboribdi.

Go'zal Vasilisa uyga qaytib qarasa qurbaqa terisi yo'q emish. U xarrakka o'tiribdi-da, qayg'u-g'amga botibdi, dili siyoh bo'lib, shahzoda Ivanga:

– Eh, shahzoda Ivan, nima qilib qo'yding-a! Agar sen yana uch kungina sabr qilganingda umrbod seniki bo'-lardim. Endi xayr. Meni dunyoning narigi chekkasidan, O'lmas Koshchey hukmronlik qilayotgan yerlardan qidir.

Go'zal Vasilisa kuhrang kakkuga aylanibdi-yu uchib ketibdi. Shahzoda Ivan yig'lab-siqtabdi, to'rt tomonga ta'zim bajo keltirib, xotini go'zal Vasilisani qidirib, dunyoning narigi chekkasiga jo'nabdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, tun-u kun yuribdi, etigi yejilib, kiyimi titilibdi, yomg'irda telpagi taqir bo'lib ketibdi. Yo'lda unga bir qariya uchrabdi va:

– Salom, yaxshi yigit! Nima qidiryapsan, qayoqqa ketyapsan? – deb so'rabdi.

Shahzoda Ivan boshiga tushgan kulfatni gapirib beribdi. Qariya unga:

– Eh, shahzoda Ivan, nega qurbaqa po'stinini yoqasan? Axir uni sen kiygizganing yo'q edi-ku, shuning uchun kuydirmasliging kerak edi. Go'zal Vasilisa otasidan ko'ra ham ayyorroq, donoroq edi. Shu bois otasi undan jahli chiqib, uch yilgacha qurbaqa bo'lib yurishni buyurgandi. Hay, mayli, manavi koptokni ol, u qayoqqa dumalasa sen ham ketidan dadil boraver.

Shahzoda Ivan qariyaga minnatdorchilik bildirib, koptok ketidan ketaveribdi. Koptok dumalayveribdi, shahzoda ham boraveribdi. Yaydoq dalada oldidan ayiq chiqibdi. Shahzoda Ivan otmoqchi bo'lib mo'ljalga olibdi. Ayiq esa odam singari javob beribdi:

– Meni otma, shahzoda Ivan, vaqtি kelib kuningga yarab qolaman.

Shahzoda Ivan uning aytganini qilib, yo'lida davom etibdi. Bir mahal bundoq qarasa, tepasidan o'rdak uchib o'tayotganmish. Shahzoda nishonga olibdi, o'rdak esa odamga o'xshab debdi:

– Meni otma, shahzoda Ivan, kerak bo'lib qolaman.

Shahzoda buning ham gapiga kirib yo'lida ketaveribdi. Oldidan quyon chiqibdi. Shahzoda Ivan shosha-pisha uni otmoqchi bo'libdi, quyon esa odamday ovoz chiqaribdi:

– Meni o'ldirma, shahzoda Ivan, bir kuningga yarab qolaman.

Shahzoda quyonni ham otmay, yo'lida ketaveribdi. Yura-yura moviy dengiz bo'yiga kelibdi. Qarasa, qirg'oqdagi qumda zo'rg'a nafas olayotgan cho'rtan baliq yotganmish, u odam singari debdi:

– Eh, shahzoda Ivan, rahming kelsin, menga yor-dam ber.

U baliqni dengizga tashlabdi-da, sohildan ketaveribdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib-

di, koptok dumalab o'rmonga kiribdi. U yerda yalmog'iz kampirning uychasi bor ekan, uycha uyoqdan-buyoqqa aylanarmish.

– Uycha, uycha, orqang o'rmonga, olding menga qarasin, – debdi Shahzoda.

Uycha orqasini o'rmonga, oldini unga qaratibdi. Shahzoda Ivan uychaga kirib qarasa, baland pechka ustida yalmog'iz kampir yotganmish, oyoqlari xodaday, tishlari tokchaday, burni shiftga tiralib turganmish.

– Hoy, yaxshi yigit, mening oldimga nimaga kelding?  
– debdi unga yalmog'iz kampir. – Ish qidirib keldingmi yo ishdan qochib keldingmi?

Shahzoda Ivan javob beribdi:

– Eh, sen, qari alvasti, avval ovqat berib qornimni to'ydir, hammomga tushir, keyin so'rasang yarashadi.

Yalmog'iz kampir uni hammomga tushiribdi, yedirib-ichiribdi, o'rın solib beribdi, shundan keyin shahzoda Ivan xotini go'zal Vasilisani qidirib yurganini aytib beribdi.

– Bilaman, bilaman, – debdi yalmog'iz kampir. – Xotining hozir O'lmas Koshcheynikida. Uni qo'lga kiritish amrimahol, Koshchey bilan olishish qiyin: uning joni igna uchida, o'sha igna tuxumda, tuxum o'rdakda, o'rdak quyonda, quyon tosh sandiqda, sandiq esa baland zarang daraxtida. O'sha daraxtni O'lmas Koshchey ko'z qorachig'iday asraydi.

Shahzoda Ivan shu kuni yalmog'iz kampirnikida tunab qolibdi, ertalab esa yalmog'iz kampir zarangning qayerdaligini ko'satibdi unga. Kunni kun demay, tunni

tun demay, shahzoda Ivan o'sha yerga boribdi, qarasa baland zarang shovullab turganmish, tosh sandiq esa unda osig'liq emish, uni olish qiyin emish.

Nogahon qayoqdandir ayiq yugurib kelibdi-da, zarrangi ildiz-pildizi bilan qo'porib tashlabdi. Sandiq yerga tushibdi-yu, parcha-parcha bo'libdi. Sandiqdan quyon sakrab chiqibdi-da, joni boricha qochib qolibdi. Uning ketidan boshqa quyon quvlabdi-da, yetib olib uni burda-burda qilibdi. Quyon ichidan o'rdak uchib chiqibdi-da, juda baland ko'tarilibdi. Shahzoda qarasa, boshqa o'rdak ko'tarilibdi-da, bir uribdi, undagi tuxum moviy dengizga tushibdi.

Shunda shahzoda Ivan tuxumni dengizdan qanday topaman, deb achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kibdi. Nogahon cho'rtan baliq qirg'oqqa suzib kelibdi. Tuxumni tishlab turganmish. Shahzoda Ivan tuxumni sindirib, ninani olibdi va uchini sindira boshlabdi. U ninani sindirayotganda O'lmas Koshchey o'zini uyoqdan-buyoqqa tashlab to'lg'anarmish. Dushman qanchalik to'lg'anib, biltanglamasin, shahzoda Ivan ninaning uchini sindiribdi, shundan keyin Koshchey o'libdi.

Shahzoda Ivan Koshcheyning oq toshdan qilingan uyiga boribdi. Oldiga go'zal Vasilisa yugurib chiqibdi. Shahzoda Ivan bilan go'zal Vasilisa uyga qaytib kelishibdi va umrlarining oxirigacha baxtiyor yashashibdi.



## **Hayvonlar qishlovi**

**¶**ir ho'kiz o'rmonda ketayotgan ekan, oldidan qo'ch-qor chiqib qolibdi.

– Qayoqqa ketyapsan, qo'chqorvoy? – deb so'rabdi ho'kiz.

– Qishlov qidirib ketyapman, – debdi qo'chqor.

– Yur men bilan.

Ular birga keta boshlabdi, ro'paralaridan cho'chqa chiqibdi.

– Qayoqqa ketyapsan, cho'chqavoy? – deb so'rabdi ho'kiz.

– Qishlov qidirib ketyapman, – javob beribdi cho'chqa.

– Yur biz bilan.

Uchovlon yo'lida g'ozga duch kelishibdi.

– Qayoqqa ketyapsan, g'oz? – deb so'rabdi ho'kiz.

– Qishlov qidirib ketyapman, – javob beribdi g'oz.

– Yur biz bilan.

G'oz ham ularga ergashibdi. Yo'lida xo'roz uchrabdi.

– Qayoqqa ketyapsan, xo'roz? – deb so'rabdi ho'kiz.

– Qishlov qidirib ketyapman, – deb javob beribdi xo'roz.

– Yur biz bilan!

Ular yo'l-yo'lakay o'zaro gaplashib ketishibdi.

– Og'aynilar, sovuq kunlar boshlanib qoldi, issiq joyni qayerdan topamiz, a? – debdi ulardan biri.

– Menga qaranglar, kelinglar, o'zimiz bir boshpana qurib olaylik, xudo ko'rsatmasin, qishda rostdan ham muzlab qolishimiz mumkin, – debdi ho'kiz.

Qo'chqor esa:

– Mening po'stinim qalin, ko'rdingmi qancha yungim bor! Men shundoq ham qishdan chiqaman, – debdi.

– Menga desa qahraton bo'lmaydimi – qo'rqlmayman: yerni qazib kirib olaman-da, kulbasiz ham qishni o'tka-zaman, – debdi cho'chqa.

– Men archazorga kiraman-da, bir qanotimni ostimga yozsam, ikkinchisini ustimga yopaman, hech qanaqa so-vuq o'tmaydi, shundoq ham qishlayveraman, – debdi g'oz.

– Menda ham qanot bor, – debdi xo'roz, – qishni bir amallarman!

Ho'kiz qarasa ish chatoq, bir o'zi harakat qilmasa bo'lmaydigandek.

– Mayli, – debdi ho'kiz, – o'zlaring bilasizlar, men esa o'zimga uy qurib olaman.

Ho'kiz kulbani qurib, yashayveribdi. Qish ham bosh-lanibdi, sovuq qattiq bo'lib, a'zoyi badandan o'tibdi. Shunda qo'chqor ho'kizning oldiga yalninib kelibdi:

– Birodar, kulbangga kirib, isinib olay.

– Sening po'stining issiq, qishni shundoq ham o'tkaza olasan-ku. Bor, yo'lingdan qolma, – debdi ho'kiz.

– Agar kiritmasang, yugurib kelaman-da, bir kalla qila-man-u kulbangni buzib tashlayman. Unda o'zingdan ko'r.

Ho'kiz: «Kel, kiritay, yo'qsa bu meni ham sovuqda qotiradi», degan o'yga borib, qo'chqorni kiritibdi.

Sovuq cho'chqaning jonidan ham o'tgach, ho'kizning oldiga kelib:

- Og‘ayni, ichkariga kirit, isinib olay, – deb yalinibdi.
- Nima, nima? Sen axir yerni qazib pastga tushib ola-san-u qishni o‘tkazaverasan-ku. Bor, yo‘lingdan qolma,
- debdi ho‘kiz.
- Agar kiritmasang, tumshug‘im bilan bir urib kul-bangni ag‘darib tashlayman.

Ho‘kiz, nachora, deb o‘ylab uni ham kiritibdi.

Shundan keyin g‘oz bilan xo‘roz kelib qolibdi.

- Ey og‘ayni, ichkariga kirit, isinib olaylik, – deyishib-di ular.
- Senlarda qanot bor-ku, birini ostilaringga yozib, birini ustilaringga yopib, qishdan chiqaveringlar, – debdi ho‘kiz.

– Agar kiritmasang, kulbangdagi yo‘sirlarni yulib tashlayman. O‘zingga qiyin bo‘ladi, – debdi g‘oz.

– Kiritmaysanmi? – debdi xo‘roz. – Kiritmasang, tomgaga uchib chiqaman-da, butun tuproqni titib tushiraman. Unda o‘zingga jabr bo‘ladi.

Ho‘kiz sho‘rlik nima qilsin? Kulbasiga g‘ozni ham, xo‘rozni ham kiritibdi.

Ular kulbada yashay boshlashibdi. Badaniga issiq yu-gurgan xo‘roz asta-sekin qo‘shig‘ini boshlabdi.

Tulki bu qo‘shiqni eshitibdi-da, bir maza qilib xo‘roz go‘shti yegisi kelib qolibdi. Ammo uni qanday tutadi? Tulki ayyorlik yo‘liga o‘tibdi. U ayiq bilan bo‘rining oldi-ga boribdi-da, debdi:

– E, qadrdon birodarlar! Men hammamizga yetarli o‘lja topdim: senga, ayiqvoy – ho‘kiz; senga, bo‘rivoy – qo‘y; o‘zimga esa xo‘roz.

– Juda soz, tulkijon! – debdi ayiq bilan bo'ri. – Biz sening yaxshililingni aslo unutmaymiz. Borib bo'g'izlaymiz-u paqqos tushiraveramiz!

Tulki ularni kulbaga boshlab kelibdi. Ayiq bo'riga qarab:

– Oldin sen kir! – debdi.

Bo'ri esa chinqirib:

– Yo'q, avval o'zing kir, mendan kuchliroqsan! – debdi.

Ayiq xo'p debdi-da, oldinga o'tibdi; u eshikka yetishi bilan ho'kiz boshini egibdi-da, shoxlari bilan devorga yopishtiribdi. Qo'chqor esa sakrab kelib, ayiqning biqiniga kalla qo'yibdi-yu, yerga ag'anatibdi. Cho'chqa chinqirib, burda-burda qilishga tushibdi. G'oz uchib kelib, ko'zini cho'qilay boshlabdi. Xo'roz esa yog'ochda o'tirib:

– Buyoqqa olib kelinglar, buyoqqa olib kelinglar! – dermish.

Bo'ri bilan tulki baqir-chaqirni eshitib, ura qochishibdi!

Ayiq urina-urina zo'rg'a qutulib chiqibdi, bo'riga yetib olibdi-da:

– E, bo'ladiqanim bo'ldi!.. Umrinda bunaqa qo'rma-gandim. Kulbaga kirishim bilan bir xotin qayoqdandir paydo bo'ldi-yu, ayrisi bilan devorga qapishtirdi qo'ydi! Duv etib yig'ilgan olomonni ko'rsang: biri tushiryapti, biri yulyapti, biri ko'zga bigiz tiqyapti. Bittasi esa xodada o'tirib: «Buyoqqa olib kelinglar! Buyoqqa olib kelinglar!»

– deb qichqirgani-qichqirgan. Agar uning qo'liga tushganimda, o'lib ketishim ham hech gap emasdi!

## **Sehrli uzuk**

Juda qadim zamonda, kun chiqar tomonda oshini oshab, yoshini yashagan chol bilan kampir o'tgan ekan. Ularning Martinka ismli o'g'illari bo'lgan ekan. Cholning butun umri ovchilik bilan o'tgan ekan. U turli xil hayvon va parrandalar otib kelar, kampir ularni pishirib shirin-shakar taomlar tayyorlar ekan. Shu taxlit kun kechirisharkan. Bir kuni chol betob bo'lib qolibdi. Ko'p o'tmay olamdan o'tibdi. Kampir bilan Martinka rosa yig'lashibdi, dod-faryod qilishibdi, ammo nachora? O'lgan odamni tiriltirib bo'larmidi?! Oradan bir haf-ta o'tibdi. Uyidagi ozroq qo'r-qut ham tugabdi. Kampir bunday qarasa yeb-ichgani hech narsa qolmabdi, navbat pulga kelibdi. Rahmatli cholidan ikki yuz so'm pul qolgan ekan. Kampir bu pulni xarjlashga qaror qilibdi. Chunki boshqa daromad bo'lmagandan keyin odam och o'tiravermaydi-ku? U pulning yuz so'mini ajratibdi-da:



– O'g'lim, mana bu yuz so'mga qo'shnilaridan ot-arava so'rab, shahardan don-dun olib kel. Bir amallab qishdan chiqib olsak, kunimizni ko'rib ketarmiz, – debdi.

Martinka shaharga qarab yo'l olibdi. U qassoblik do'konlari yonidan o'tib ketayotib ur-sur, to'polonning ustidan chiqib qolibdi. Nima gap deb odamlar orasini yorib o'tib qarasa, qassoblar bir ov itini qoziqqa bog'lab qo'yishib, tayoq bilan rosa savalashayotgan emish. It bechora o'zini uyoqdan-buyoqqa urib, angillarmish, talpinarmish... Martinka qassoblarning yoniga yugurib boribdi-da:

– Og'aynilar! Bu bechora itni nega bunchalik uryapsizlar, rahmlaringiz kelmaydimi? – deb so'rabdi.

– Bu la'nati bir nimta go'shtni harom qildi-yu, yana urmaylikmi, – deyishibdi qassoblar.

– Shuncha urganingiz ham yetar, yaxshisi menga sotib qo'ya qolinglar.

– Mayli, sotsak sotaylik, – debdi ulardan biri hazilashib, – yuz so'm berib ola qol.

Martinka qo'ynidan yuz so'm chiqarib qassoblariga beribdi-da, itni yechib olib ketibdi. It bo'lsa erkalanib uning oyoqlarini yalarmish, atrofida gir-gir aylanarmish, nega deganda o'zini kim o'limdan qutqarganini bilibdi-da.

Martinka uyga qaytib kelishi bilan onasi so'rabdi:

– Nima olib kelding, bolam?

– Birinchi duch kelgan baxtni olib keldim.

– Bu nima deganing, o'g'lim, baxting nimas?

– Mana bu – Jurka! – deb onasiga itni ko'rsatibdi u.

– Boshqa hech narsa olmadingmi?

– Puldan qolganda-ku, olar edim-a, lekin itni yuz so‘m-ga sotib oldim-da.

Kampirning fig‘oni falakka chiqibdi.

– Yeyishga hech vaqomiz yo‘q-ku, qilgan ishingni qara-ya: bugun supradagi unni qoqib-suqib non yopgan edim, endi nima qilamiz.

Ertasiga kampir o‘g‘liga yana yuz so‘m berib:

– Shaharga borib, mana bu pulga bug‘doy olib kel, yana ko‘chaga tashlab kelmagin, – deb tayinlabdi.

Martinka shaharga kelib, ko‘chalarni tomosha qilib yurgan ekan, bir shum bolani ko‘rib qolibdi: u bir mushukni tutib, bo‘ynidan bog‘lab, anhorga sudrab keta-yotgan emish.

– To‘xta, – deb qichqiribdi Martinka, – Baroqni qayoqqa olib ketyapsan?

– Bu la’natini cho‘ktirib yubormoqchiman.

– Senga nima yomonlik qildi?

– Stolning ustidagi pirogни olib qochdi.

– Uni suvga tashlagandan ko‘ra menga sotib qo‘ya qol.

– Ha, mayli, sotsam sotay, yuz so‘mga ola qol.

Martinka o‘ylab o‘tirmay qo‘ynidan pulini chiqaribdi-da, bolaga berib, mushukni to‘rvasiga solib uyiga olib ketibdi.

– Nima olding, o‘g‘lim? – deb so‘rabdi onasi.

– Baroq mushuk oldim.

– Boshqa hech narsa olmadingmi?

– Puldan qolganda-ku, yana biror narsa olgan bo‘lar edim-a.

– Ey esi past ahmoq! – deb bobillab beribdi kampir, – yo‘qol ko‘zimdan, ishlab o‘z noningni o‘zing-topib yegin.

Martinka ish qidirib qo'shni qishloqlarga ketibdi. Baroq bilan Jurka ham orqasidan ergashib boraveribdi. Bir payt oldidan pop chiqib qolibdi.

- Qayoqqa ketyapsan, chirog'im? – deb so'rabdi u.
- Ish qidirib ketyapman.
- Bo'lmasa, yur men bilan, lekin bir shartim bor: xizmat haqqini uch yildan keyin beraman.

Martinka rozi bo'lib, uch yilgacha charchash nimaligini bilmay, popning xizmatini qilibdi: haq to'lash payti kelganda xo'jayin uni chaqirib olibdi-da:

- Qani, Martinka! Kel endi, xizmat haqqiningni ol, – deb uni omborga boshlab kiribdi va ikkita to'la qopni ko'rsatibdi. – Xohlaganingni ol!

Martinka bunday qarasa, qoplarning birinchisi to'la kumush, ikkinchisi bo'lsa qum emish. Shunda u:

«Bunda bir gap bo'lsa kerak! Xizmatim bekorga ketsa ketar, sinash uchun qumni olib boray-chi, nima bo'lar-kin?» deb o'ylanib qolibdi.

Keyin xo'jayinga:

- Otaxon, men qumli qopni olaman, – debdi.
- Chirog'im, ko'nglingga xush kelganini qil, agar kumushdan hazar qilsang, qumni ola qol, mayli.

Martinka qopni orqalab yo'lga tushibdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, oxiri adashib, bir qorong'i o'rmonga kirib qolibdi. Daraxtlarning orasida bir yalanglik joy bor ekan. U yerda olov yonayotgan emish, olovning o'rtasida chiroyli, oyni uyaltiradigan go'zal bir qiz o'tirgan emish.

- Ey tul xotinning o'g'li Martin! – debdi haligi qiz. – Agar baxtli bo'lishni istasang meni qutqar: uch yillik xizmating uchun olgan qumingni sepib mana bu o'tni o'chir.

Martin:

«Rostdan ham bunday og‘ir yukni ko‘tarib yurgandan ko‘ra bir insonni halokatdan qutqarganim yaxshi-ku! Qum degan nima ekan, uni har qayerdan ham topsa bo‘ladi!» – deb qopning og‘zini ochibdi-da, o‘tga sepa boshlabdi, o‘t o‘chibdi, go‘zal qiz esa bir dumalab ilonga aylanibdi, keyin yigitning ko‘kragiga sapchib, tomog‘iga o‘ralib olibdi. Martinka qo‘rqib ketibdi.

– Qo‘rqma, – debdi ilon unga, – endi falon joydagi yer osti mamlakatiga bor, u yerda mening otam podsholik qiladi. Saroya kirishing bilan u senga juda ko‘p oltin, kumush va qimmatbaho toshlar beradi, sen ularning hech qaysisini olmay, jimjilog‘idagi uzukni so‘ra. Uzuk oddiy emas, uni u kaftingdan bu kaftingga irg‘itsang shu zahotiyoq o‘n ikkita bahodir yigit paydo bo‘ladi, ularga qanday xizmat buyurma, bir kechaning o‘zida muhayyo qilishadi.

Yigit yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, axiri qizilon tayinlagan joyga yetib boribdi, qarasa kattakon bir tosh turganmish. Ilon shu yerda uning bo‘ynidan tushib, bir dumalab yana suluv qiz bo‘lib qolibdi.

Qiz:

– Orqamdan kelaver, – deb uni toshning tagiga olib kirib ketibdi.

Ular yer tagida ancha yo‘l yurishgandan keyin miltillab chiroq ko‘rinibdi. Yaqinlashishgan sari chiroq ravshanlashaveribdi. Oxiri ular ko‘m-ko‘k osmon tagiga, keng bir maydonga chiqishibdi: maydonda hashamatli bir saroy qad ko‘tarib turganmish, saroyda bo‘lsa haligi suluv qizning otasi – yer osti mamlakatining podshosi yasharkan.


































Ular marmardan qurilgan qasrga kirib borishgan ekan, podsho ularni juda samimiy kutib olibdi.

– Salom, qizim, – debdi u, – shuncha yildan beri qayerlarda yuribsan?

– Otajonim! Agar mana bu yigit uchramaganda men butunlay yo‘q bo‘lib ketardim, u meni o‘limdan qutqarib, vatanimga olib keldi.

– Rahmat senga, bahodir o‘g‘lon, – debdi podsho, – sening bu xizmatingga har qancha boylik bersa ham arziydi, oltin deysanmi, kumush deysanmi, qimmatbaho toshlar deysanmi, istaganingni ol.

Shunda Martin bunday debdi:

– E, podshohi olam! Menga oltin ham, kumush ham, qimmatbaho toshlar ham og‘irlik qiladi. Agar mukofot-lamoqchi bo‘lsangiz, jimjilog‘ingizdagи uzukni bering. Men bo‘ydoq yigitman: tez-tez uzukka boqib, qallig‘ to‘g‘risida xayol suraman, shu bilan zerikmay ovunib yuraman.

Podsho shu zahotiyoy jimjilog‘idagi uzukni olib Martinga uzatibdi.

– Mana, ola qol, yaxshilikka buyursin. Ha, esingda bo‘lsin: uzuk to‘g‘risida hech kimga og‘iz ochma, yo‘qsa boshingga balo orttirasan!

Martin podshoga qulluq qilib, yo‘lga bir oz pul olib-di-da, orqasiga qaytibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, o‘z vataniga yetib kelibdi, onasini qidirib topibdi. Shundan keyin ular hech qanday tashvishsiz, g‘am yemay, bir burda nonni kam yemay kun kechirishaveribdi.

Kunlar o‘tib, Martinkaning uylangisi kelibdi-da, onasiga qarab:

– Oyi, qirolning saroyiga borib, uning go'zal qizini menga unashtirib keling, – debdi.

– E, o'g'lim, katta gapirgandan ko'ra nonni katta tish-lagan foyda. Topgan gapingni qara-ya! Qirolnikiga borib nima qilaman? Gapimni eshitib seni o'limga buyurishi turgan gap-ku.

– Hechqisi yo'q, qo'rwmang, oyijon! Men yuborganimdan keyin dadil boravering. Qirolning javobini men-ga kelib aytasiz, javobsiz qaytmang.

Kampir taraddud ko'rib yo'lga tushibdi, saroya ke-lib, eshikdan to'ppa-to'g'ri ichkari kirib ketayotgan ekan, uni soqchilar ushlab olishibdi.

– To'xta, shum kampir! Esingni yedingmi, qayoq-qa ketyapsan? Bu yerdan hatto lashkarboshilar ham so'roqsiz o'tisholmaydi-ku...

– E, qanaqa odamsanlar o'zi, – deb ayyuhannos solib-di kampir, – men qirolning yoniga yaxshi niyat bilan kel-yapman, uning qizi – qirolichani o'g'limga olib bermoq-chiman, senlar bo'lsalaring yo'limni to'sasanlar.

U shunday to'polon ko'taribdiki, asti qo'yaverasiz! Qirol bu janjalni eshitib, derazadan qarab, kampirni o'tkazib yuborishni buyuribdi. Kampir qirolning huzuri-ga kiribdi-da, unga ta'zim qilibdi.

– Qanday ish bilan kelding, kampir? – deb so'rabdi qirol.

– Dargohingizga bir xizmat bilan keldim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman. Menda bir bulbul, sizda bir gul bor, aylanay. Bulbul – mening o'g'lim. Gul bo'lsa sizning qizingiz, hoqonim. Qizingizni o'g'lim Martinkaga so'rab keldim, xuddi uzukka ko'z qo'ygandek bo'ladi.

- Nimalar deyapsan o'zi, miyasi achigan kampir, esingni yeb qo'ydingmi? – deb o'dag'aylabdi qiro.
- Es-hushim joyida, qirol hazrati oliylari! Javobin-gizni kutaman.

– Qirol shu zahotiyog hamma a'yonlarini chaqirtirib, bu kampirga qanday javob beray deb maslahat solibdi.

Oxiri shunday qarorga kelishibdi: Martin bir kechada katta qasr qurishi darkor. Qasrdan qirolning saroyi-gacha billurdan ko'prik bo'lishi kerak, ko'prikning ikki tomonida oltin va kumush olma daraxtlari bo'lsin, bu daraxtlarda bulbullar sayrab tursin. Buning ustiga yana nikoh o'qiladigan, to'y marosimi o'tkaziladigan alohida besh gumbazli ibodatxona qursinmish. Agar o'g'ling shu shartlarni bekamu ko'st bajara olsa, u juda aqli odam bo'ladi. Qirolichani bersak arziydi, bordi-yu, uddasidan chiqolmasa, gunohlarining uchun sen bilan o'g'lingning boshini tanasidan judo qilamiz, deb kampirga javob berib yuborishibdi. U bechora uyiga qaytar ekan, yo'l-yo'lakay boshi aylanib, gandiraklab, achchiq ko'z yosh to'kibdi. Martinkani ko'ribdi-yu:

- Aytmadimmi, o'g'lim, ortiqcha dahmazani qo'y desam, gapingda turib olding. Mana endi boshimizdan aylamiz, ertaga bizni qatl etishadi, – debdi.
- G'am yemang, onajon, balki tirik qolarmiz: yotib uxlang, ertaga bir gap bo'lar.

Martinka qoq yarim kechada o'rnidan turibdi-da, hovliga chiqibdi. Uzukni u kaftidan bu kaftiga irg'itgan ekan, bir zumda o'n ikkita birini biridan ajratib bo'lmaydigan bahodir yigitlar paydo bo'libdi.

– Tila tilagingni, beva xotinning o'g'li Martin.  
– Menga ertalabgacha xuddi shu yerga bir hashamatli qasr qurib beringlar, bu qasrdan qirolnikigacha billur ko'prik bo'lsin. Ko'prikning ikki tomonida qator daraxtlar o'sib, ularning ustida oltin va kumush olmalar pishib yotsin. Shoxlarida bulbullar sayrab tursin, innankeyin, besh gumbazli ibodatxona ham quringlar, unda nikoh o'qishga alohida, to'y marosimini o'tkazish uchun alohida joylar bo'lsin.

Bahodirlar unga:

– Ertalabga hammasini muhayyo qilamiz, – deyishibdi. Keyin ular har yoqqa tarqalishib, ustalar-u duradgorlarni topib kelishibdi-da, ishga tushishibdi. Hash-pash deguncha barcha buyurilgan narsalar taxt emish. Ertalab Martin ko'zini ochsa oddiy kulbada emas, bezatilgan qasrda yotganmish; baland pillapoyaga chiqib bunday qarasa, qasr ham, ibodatxona ham, billur ko'prik ham, oltin va kumush olmalar ham – xullas, hamma buyurgan narsalari ko'z o'ngida turganmish. Shu paytda qirol ham boloxona ayvoniga chiqib durbin bilan qarab hayratta qolibdi, nimaiki buyurgan bo'lsa hammasi muhayyo emish. Shunda qizini yoniga chaqirtiribdi-da, nikohga hozirlik ko'rishni buyuribdi.

– Men, – debdi u, – seni oddiy bir mujikning o'g'liga berishni xayolimga ham keltirmagan edim, nachora, bo'lar ish bo'ldi.

Qirol qizi yuvinib-taranib, qimmatbaho liboslarini kiyayotganida Martin kattakon hovliga chiqib, uzukni u kaftidan bu kaftiga irg'itgan ekan, xuddi yerdan chiqqandeck qarshisida o'n ikkita bahodir paydo bo'libdi.

- Tila tilagingnii!
- Gap bunday, og‘aynilar, menga boyonlarning chakmonidan kiygizinglar va chiroyli foytun bilan oltita ot tayyorlab qo‘yinglar.
- Hozir hammasi muhayyo bo‘ladi.

Ko‘z ochib yumguncha chakmon olib kelishibdi, uni kiyib ko‘rsa, xuddi o‘ziga tikilgandek lop-loyiq emish. O‘girilib bunday qarasa, eshik oldida foytun turgan-mish, unga bir yoq yoli oltin, bir yoq yoli kumush otlar qo‘shilganmish. Foytunga o‘tirib, ibodatxonaga borsa: u yerda ibodat qilish uchun qo‘ng‘iroq chalinayotgan emish, ibodatxonaga odam sig‘masmish. Kuyovning ketidan kelin ham o‘zining enaga-yu yangalari bilan, otasi bo‘lsa vazir-vuzarolari bilan yetib kelishibdi. Ibo-datdan keyin beva xotinning o‘g‘li Martin qiro qizini qo‘ltiqlab, birga yashashga ahd-paymon qilishibdi. Qirol qiziga qimmatbaho sep beribdi, kuyovni katta mansabga o‘tkazibdi. Keyin el-u yurtga to‘y beribdi, to‘ymaganga qo‘y beribdi.

Yoshlar bir qancha vaqt birga umr kechirishibdi. Martinka kundan-kun yangi saroylar qurarmish, bog‘lar yaratarmish. Lekin shahzoda yoki podshovachchaga emas, oddiy bir mujikka tekkani qirolichaning yuragida baribir armon bo‘lib qolaveribdi. Shuning uchun ham qirolicha qanday qilib bo‘lmasin erini yo‘qotish payiga tushibdi-yu, mug‘ambirlik yo‘liga o‘tibdi. Erining u yoni-dan kirib, bu yonidan chiqib, nuql uning sirini bilib olishga urinarmish. Martinka mahkam turib sirini boy bermabdi.

Kunlarning birida u qirolnikida ziyoftda rosa ichib-di-da, uyiga qaytib kelib yotibdi. Shunda qiroliche unga shirin-shakar so'zlabdi, yomonlikni ko'zlabdi, yolg'on-yashiq bilan Martinkani eritibdi. Martinka unga sehrli uzugi haqida gapirib beribdi.

«Hap senimi, – deb o'ylabdi qiroliche, – endi adabing-ni beraman».

U qattiq uyquga ketdi deguncha, jimjilog'idan uzukni olib, hovliga chiqibdi-da, u kaftidan bu kaftiga irg'itibdi. Shu zahoti o'n ikkita bahodir hozir bo'libdi.

– Nimalar istaysiz, nimalar xohlaysiz, qirolicham?

– Quloq solinglar, yigitlar, ertalabgacha bu yerda na saroy, na ibodatxona, na billur ko'prik, xullas, hech narsani qoldirmanglar-da, ilgaridek eski kulbani o'rnatib qo'yinglar. Erim kambag'alligicha qolaversin, meni bo'lsa juda uzoqqa – sichqonlar mamlakatiga olib borib tashlanglar. Bu nomusga chidolmayman.

– Xo'p bo'ladi, aytganlaringizni bajo keltiramiz!

Shu topdayoq uni shamol uchirib, uzoq elatga – sichqonlar yashaydigan mamlakatga olib ketibdi.

Ertalab qirol uyqudan uyg'onib, durbini bilan qarasa na billur ko'prik, na saroy, na besh gumbazli ibodatxona bormish. Ularning hammasi g'oyib bo'lib, o'rnida faqat eski bir kulbagina turganmish.

«Bu ne sinoat? – deb o'ylabdi qirol. – Bulaqning hammasi qayoqqa ketdi?»

Fursatni boy bermay darrov qanday hodisa ro'y ber-ganini bilib kelish uchun choparini yuboribdi. Chopar otga minib boribdi-yu, voqeadan xabardor bo'lgach, qaytib kelib qirolga xabar beribdi.

– Hazrati oliylari! Ulkan saroyning o‘rnida ilgarigidek bitta kichkinagina kulba turibdi. Uning ichida kuyovin-giz onasi bilan o‘tiribdi. Go‘zal malikamdan nom-u ni-shon yo‘q, uning qayerdaligi noma’lum.

Qirol katta kengash chaqirib, qizini sehr-jodu bilan aldaganiligi va halok qilgani uchun kuyoviga jazo o‘ylab topishni buyuribdi. Martinkani baland qilib g‘ishtdan ishlangan katalakka qamab, suv ham, non ham ber-maslikka qaror qilishibdi: shu holicha o‘lib ketsin, deyi-shibdi. Ustalar kelishibdi-da, g‘ishtdan baland minora qurishibdi. Uning tepasiga bir katalak qurib Martinkani o‘sha yerga qamab qo‘yishibdi. Katalakning hammayog‘i mahkamlanib, faqat yorug‘ tushib tursin uchun kichkina bir darcha o‘rnatib qo‘yishibdi. U bechora o‘sha yerda ochdan och, ko‘z yoshi to‘kib yotaveribdi.

Bu falokatdan iti Jurka xabar topib kulbaga chopib kirsa, Baroq pechkaning ustida xurillab yotgan emish, shunda it uni koyib ketibdi:

– Ey Baroq, muncha beparvosan? Senga faqat pech-kaning ustida yotish bo‘lsa, xo‘jaynimizning katalakka tiqib qo‘yilgani bilan ishing ham yo‘q. Yuz so‘m to‘lab seni o‘limdan qutqarib qolgani esingdan chiqib ketgan-ga o‘xshaydi: u qutqarmaganda sen allaqachon qurt-qu-mursqalarga yem bo‘lib ketarding! Tur o‘rningdan tez-roq! Kuchimiz yetguncha unga yordam berishimiz kerak.

Baroq pechkaning ustidan tezgina tushibdi, keyin ikkovlari xo‘jayinlarini qidirib ketishibdi. Minoraning tagiga kelishgandan keyin Baroq tirmashib darchaga chiqibdi:

- Salom, xo'jayin! Sog'-salomatmisan?
- Bir nav yashab turibman, – deb javob beribdi Martinka, – ochlikdan sillam quridi, o'ladigan bo'ldim.
- O'zingni tut, xafa bo'lma. Biz senga suv ham, ovqat ham olib kelib beramiz, – shunday deb sakrab yerga tu-shibdi Baroq.
- Oshnam Jurka, axir xo'jainimiz ochdan o'lyapti-ku, qay yo'l bilan yordam bersak ekan?
- Esing yo'q ekan-u, Baroq! Shunga ham ota go'ri qozixonami? Shaharni aylanib yuramiz-da, savat ko'tarib ketayotgan nonvoyni uchratib qolsak, men darrov uning oyog'iga urilib, boshidan savatini tushirib yuboram. Shunda sen anqaymay, darrov nonlardan olasan-u to'g'ri xo'jayinga olib borib berasan.

Shu maslahat bilan ular yo'lga tushishgan ekan, qarshilaridan savat ko'tarib kelayotgan bir nonvoy chiqib qolibdi. Jurka chopib borib o'zini uning oyog'iga urgan ekan, nonvoy gandiraklab ketib, savatini qo'lidan tushirib yuboribdi. Nonlar sochilib ketibdi, nonvoy it qu-turgan bo'lsa, tag'in biror falokat yuz bermasin deb qo'r-qib ketib qochib qolibdi. Baroq shu zahoti hap etib nonga yopishibdi-yu, Martinka yoniga jo'nabdi. Bittasini olib borib qaytib kelibdi-da, yana ikkinchisiga yopishibdi, uni berib kelib, uchinchisiga tashlanibdi.

Ular Martinkaga bir yilga yetarli qilib kulcha, qotgan non degandek oziq-ovqat g'amlab berishibdi-da:

- Xo'jayin, hisobi bilan tanovul qil, shu narsalar biz qaytib kelguncha yetsin, – deyishib, xayrlashishib, yo'lg'a tushishibdi.

Shundan keyin Jurka bilan Baroq bir amallab sehrli uzukni topib kelgani uzoq elatga – sichqonlar mamlakatiga otlanishibdi.

Yo'l yurishib, yo'l yurishsa ham mo'l yurishib oxiri bir dengiz bo'yiga yetib kelishibdi. Shunda Jurka Baroqdan:

– Men narigi qirg'oqqa suzib o'ta olaman, sen-chi? – deb so'ragan ekan, Baroq:

– Men suzishni uncha yaxshi bilmayman, toshdan ham tez cho'kaman, – deb javob beribdi.

– Bo'lmasa, ustimga chiq!

Baroq Jurkaning ustiga chiqibdi, yiqilmay deb tiringqlari bilan itning juniga mahkam yopishib olibdi, shu yo'sin ular dengiz bo'ylab suzib ketishibdi. Narigi qirg'oqqa o'tib olishibdi. Shunday qilib ular uzoq sichqonlar mamlakatiga yetib borishibdi.

U yerda bironta odam yashamas ekan: lekin sichqon degan shunchalik ko'p ekanki, sanab sanog'iga yetib bo'lasmish. Qayoqqa qarasang, gala-gala sichqonlar yurarmish.

Shunda Jurka Baroqqa debdi:

– Qani, oshnam, ov qilishga kirishaver, sen mana shu sichqonlarni tutib bo'g'ib tashlayverasan, men ularni bir yerga to'plab taxlayveraman.

Baroq bunday ovlarga ustasi farang emasmi, sichqonlarning rosa dodini beribdi, u sapchidi deguncha sichqonning joyi jahannam bo'laveribdi. Jurka esa bo'g'ib tashlagan sichqonlarni taxlab ulgurolmasmish. Ular bir haftada kattakon g'aram qilishibdi. Shunday qilib podsholikning boshiga og'ir musibat tushibdi: sichqonlar-

ning podshosi bunday qarasa, qo'l ostidagilari kamyib ketganmish, ko'pchiligi nobud bo'lganmish. Shunda sichqonlar podshosi inidan chiqib Jurka bilan Baroqqa:

– Sizlarning oldingizda bosh egaman, ey qudratli pahlavonlar. Mening xalqimga rahmingiz kelsin, ularni o'ldirmanglar, undan ko'ra maqsadlaringni aytinglar, sizlarga nima kerak? Qo'limdan kelgan ishimni ayamay, xizmatlaringga tayyorman, – deb yolvoribdi.

Jurka unga javoban shunday debdi:

– Sening mamlakatingda bir qasr bor. O'sha qasrda bir go'zal qiroq qizi yashaydi. U xo'jayinimizning sehrli uzugini o'g'irlab ketgan. Agar o'sha uzukni olib berolmasang o'zingni ham, podsholigingni ham yer bilan yakson qilamiz. Biron ta ham jonivorni tirik qo'yaymiz!

– To'xtanglar, – debdi sichqonlar podshosi, – men fuqarolarimni chaqirtirib surishtirib ko'ray-chi.

U o'sha topdayoq kattadan-kichik hamma sichqoni chaqirtiribdi-da, saroyga, qiroq qizining yoniga kirib sehrli uzukni olib chiqadigan azamat bormi, – deb so'rabi. Bitta mitti sichqon o'rtaga chiqibdi:

– Men, – debdi u, – saroyga tez-tez borib turaman: qiroq qizi kunduzlari uzukni jimjilog'ida taqib yuradi, kechalari og'ziga solib yotadi.

– Shuni olib kelishga harakat qil! Olib kelolsang shohona sovg'alar olasan.

Sichqonboy tun bo'lishini kutibdi-da, saroyga kiribdi. Keyin sekin-asta uyga bosh suqib qarasa, qirolichcha qattiq uyquda yotganmish. U emaklab qiroq qizining to'shagi ustiga chiqibdi, uning burniga dumini tiqib li-

killatibdi. Qirolicha burni qichib, aksirib yuborgan ekan, uzuk og'zidan uchib borib gilamga tushibdi. Sichqonboy darrov o'zini karavotdan otib, uzukni tishlabdi-da, uni podshoga eltibdi. Sichqonlar podshohi uzukni qudratli pahlavonlar Baroq bilan Jurkaga topshiribdi. Ular podshoga minnatdorchilik bildirishib, uzukni kim yaxshi saqlay oladi, deya maslahat qilishibdi.

– Menga bera qol, – debdi shunda Baroq, – men hecham yo'qotmayman.

– Xo'p, mayli, – debdi Jurka, – ehtiyot bo'l, ko'z qorachig'ingdek saqla.

Mushuk uzukni og'ziga solib olibdi, keyin ular orqalariga qaytishibdi.

Ular dengiz bo'yiga yetib borishgandan keyin Baroq Jurkaning ustiga chiqib, unga iloji boricha mahkam yopishib olibdi. Jurka suvga tushib suzib ketibdi. Oradan birmuncha vaqt o'tibdi, shunda qayoqdandir bir qora qarg'a uchib kelib, Baroqning boshi ustida aylanib, uni cho'qiyveribdi. Bechora mushuk nima qilarini, o'zini qanday himoya etishni bilmasmish. Bordi-yu, qo'lini ishga solsa, suvga tushib cho'kib ketadi, ijirg'anib qarg'aga tishlarini ko'rsatay desa uzukni yo'qotib qo'yadi. U anchagacha tishini-tishiga qo'yib kelibdi-yu, oxiri sabri tugabdi. Qarg'a cho'qiyverib bechoraning boshini qonatib yuboribdi, shunda Baroqning jahli chiqib, qarg'ani tishlamoqchi bo'lgan ekan, uzuk dengizga tushib ketibdi. Qora qarg'a esa tepaga ko'tarilib, qalin o'rmonga uchib ketibdi.

Jurka daryo qirg'og'iga chiqishi bilan uzukni so'rabdi. Baroq bo'lsa boshini quyi solib turganmish.

– Kechir meni, oshnam, – debdi u, – oldingda gunoh-korman, uzukni suvga tushirib yubordim.

Shunda Jurka og‘ziga kelgan gapni qaytarmay uni haqorat qila boshlabdi.

– Eh, la’nati, merov. Yaxshi ham oldinroq bilmaganim, bo’lmasa to‘g’ri dengizga cho’ktirib yuborardim! Endi xo‘jayinimizning oldiga qaysi yuzimiz bilan boramiz? Hozir suvga tushib yo uzukni topib chiq yoki o‘zing ham daf bo‘l!

– Daf bo‘lib ketganimning nima foydasi bor? Yaxshisi yana bir hiyla qila qolaylik: xuddi sichqonlardaqa qilib endi qisqichbaqalar ovlaylik, balki ular uzukni topishimiz uchun yordam berishar.

Jurka bu gapga ko‘nibdi. Ular dengiz bo‘yida yurib qisqichbaqalarni bo‘g‘a boshlashibdi, o‘lganlarini to‘plab bir yerga uyaverishibdi. Shunday qilib ular kattakon uyum qilishibdi. Shu vaqtda suvdan havo olib, hordiq chiqargani bir ulkan qisqichbaqa chiqib qolibdi. Jurka bilan Baroq unga bab-baravar tashlanib, ushlab olishgan ekan, u bechora jon-jahdi bilan talpinib:

– Meni o‘ldirmanglar, ey bahodir pahlavonlar, men qisqichbaqalarning podshosi bo‘laman: nimaiki buyursanglar, bajonidil bajaraman, – deb yalinib-yolvoribdi.

– Dengizga uzugimizni tushirib yubordik. O‘shani qidirib topib bersang bergenning, bo’lmasa butun podsholigingni ostin-ustun qilib tashlaymiz.

Qisqichbaqalar podshosi shu damdayoq butun fuqarolarini chaqirtirib uzukni surishtiribdi. Bitta kichkina-gina qisqichbaqa o‘rnidan turibdi-da:

– Uzukning qayerdaligini men bilaman, – debdi. – Uzuk dengizga tushishi bilan bir tuya baliq uni yutib yuborgan, buni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

Shunda hamma qisqichbaqalar tuya baliqni qidirib ketishibdi. Ular baliqni topishib jon-holiga qo‘ymay har tomondan qisqichlari bilan chimchilashaveribdi. Tuya baliq qayoqqa bormasin, qisqichbaqalar uning orqasidan qolishmabdi, u bechoraga bir dam ham tinchlik berishmabdi. Baliq uyoqdan-buyoqqa aylanaverib, oxiri sakrab qirg‘oqqa chiqib ketibdi. Qisqichbaqalar podshosi ham darrov qirg‘oqqa chiqib Jurka bilan Baroqqa:

– Ey qudratli pahlavonlar, uzuklaringizni yutib yuborgan baliq oldilaringizga chiqdi. Uni ayab-netib o‘tirmay, burda-burda qilib tashlanglar, – debdi.

Jurka baliqning dum tomonidan yeya boshlabdi.

– Zap ish bo‘ldi-da, – deb o‘ylabdi u, – rosa to‘yib ov-qatlanamiz endi! – Quv Baroq uzukni qayerda turishiga aqli yetibdi-da, baliqning qornini yorib ichak-chavog‘ini chiqaribdi. Keyin fursatni qo‘ldan boy bermay, uzukni og‘ziga solibdi-yu, oyog‘ini qo‘liga olib qochib qolibdi.

«Xo‘jaynimning yoniga ilgariroq borib unga uzukni beraman-da, butun ishni yolg‘iz o‘zim qildim, deyman, shundan keyin xo‘jayin Jurkadan ko‘ra meni ko‘proq erkalatadi», deb o‘ylabdi u.

Jurka qornini to‘yg‘azib bunday qarasa mushuk yo‘q. U darrov o‘rtog‘ining niyati buzilganligi, xo‘jayinga yolg‘on-yashiq gaplar bilan o‘zini yaxshi ko‘rsatmoqchi bo‘lganini sezibdi.

«Meni laqillatmoqchi bo‘psan-da, Baroq! Yetib olsam dabdalangni chiqarib tashlayman».

Jurka Baroqni quvlab ketibdi. Yugura-yugura oxiri unga yetib olibdi-da, xuddi yeb qo'yadigandek do'q uribdi. Baroq o'takasi yorilib yalanglikda qad ko'tarib turgan qayin daraxtini ko'rib qolibdi-yu, uning uchiga chiqib o'tirib olibdi.

– Ha, mayli, – debdi Jurka, – bir umr daraxtning ustida o'tirolmaysan-ku, axir pastga tushasan, men bo'lsam daraxt tagidan bir qadam ham jilmay, poylab o'tiraman.

Baroq daraxtning ustidan tushmay uch kun o'tiribdi. Jurka ham pastda haq deb uch kungacha kutibdi. Oxiri ikkovlarining ham qorinlari ochib, yarashishga jazm qilishibdi.

Ular yarashishibdi-da, birgalikda xo'jayinlarining yoniga qarab yo'l olishibdi. Minoraga yetib kelishgandan keyin Baroq darchaga chiqibdi-da:

– Xo'jayin, sog'-salomatmisan? – deb so'rabi.

– Salom, Baroqvoy! Men endi sizlar qaytib kelmassizlar deb o'tirgan edim. Uch kundan beri ochman.

Mushuk unga sehrli uzukni beribdi. Martinka qorong'i tushishini kutibdi-da, keyin uzukni u kaftidan bu kaftiga irg'itgan ekan, o'n ikkita bahodir yigit paydo bo'lib qolibdi.

– Tila tilagingni, nima xohlaysan?

– Og'aynilar, o'sha ilgarigi saroyimni ham, billur ko'prikni ham, besh gumbazlik ibodatxonani ham joyjoyiga o'rnashtirib qo'yinglar-da, bevafo xotinimni olib kelib beringlar. Ertalabgacha hammasi tayyor bo'lsin.

Ertalab aytganlarining barchasi muhayyo bo'libdi. Qirol ertalab boloxona ayvoniga chiqib durbin bilan qa-

rasa, ilgarigi kulbaning o‘rnida katta qasr turganmish, u yerdan qirolning saroyigacha billur ko‘prik bor emish, ko‘prikning ikki tomoniga oltin va kumush olma daraxtlari ekilganmish.

Qirol ot-arava tayyorlashni buyuribdi, keyin: «Bular rostdan ham ilgarigi asliga keldimi yoki ko‘zimga shunaqa bo‘lib ko‘rindimi?» deb o‘ylab, anig‘ini bilib kelgani boribdi.

Martinka unga peshvoz chiqib kutib olibdi-da, qo‘l-tiqlab o‘zining naqshinkor qasriga olib kirib boshidan o‘tganlarni birma-bir gapirib beribdi, qizingiz boshimga shunday kulfatlarni soldi, debdi.

Qirol qizini o‘limga buyuribdi. Uning buyrug‘i bilan bevafo xotinni yovvoyi otning dumiga bog’lab, dala-dashtga qo‘yib yuborishibdi. Martinka esa murod-maq-sadiga yetibdi.



## **Laqma ajdaho bilan uddaburon askar**

**Б**ор екан-да, yo'q екан, bir askar bo'lган екан. Ujang-u jadalni tamomlab, uyiga qaytguncha chubug'ini chekib, ashulani vang qo'yib kelaveribdi.

Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, kechga yaqin bir qishloqqa yetib kelibdi. Shu yerda tunab qolmoqchi bo'lib, bir derazani taqillatibdi:

– Hoy yaxshilar, askarga bir kechaga joy beringlar!  
Hech kim javob qaytarmabdi.

Askar boshqa uyning eshigini taqillatibdi. Bu yerda ham hech kim javob qilmabdi. Uchinchi uyg'a boribdi-da, zinaga chiqib, eshikni taqillata boshlabdi. Bu yerda ham hech kim tovush bermabdi. U eshikni ochib, ichkari kribdi, qarasa, hech kim yo'q. Hammayoq chang, uy ichini o'rgimchak ini bosib ketgan emish.

«Nima gap o'zi? – deb o'ylabdi askar. – Bu qishloqning odamlari qayoqqa ketdi ekan?»

Xullas, askar bir qancha uyg'a kirib chiqibdi. Ammo hammasi bo'm-bo'sh, huvullab yotganmish...

Nihoyat u oxirgi kulbaga kiribdi. U yerda peç ustida bir chol yig'lab o'tirganmish.

– Assalomu alaykum, bobo, – debdi askar.

– Nega bu yerga kelding, bolam? Nima, joningdan to'ydingmi? Urushdan-ku sog'-salomat qaytibsan-a, endi bu yerda o'lishing aniq.

– Nima uchun?

– Bu yerga bir ajdaho uchib kelib odamlarni yeb qo'y-yapti. Hamma odamlarni yeb bo'ldi, faqat meni nonushtaga qoldirdi. Ertaga uchib kelib meni ham yeydi, seni ham sog' qo'ymaydi. Bir yamlaganda ikki odamni yutadi.

– Balki, tiqilib qolib o'lar, – debdi askar. – Keling, nima bo'lsa bo'lar, siz bilan tunab qolaman, o'sha ajdahoni o'zim bir ko'ray.

Ular yotib uxlashibdi.

Ertalab to'satdan qattiq bo'ron ko'tarilib, uy qimirlab ketibdi – ajdaho kelibdi. Eshikdan boshini suqib, chol bilan askarni ko'ribdi.

– Oho, o'lja kelib qolibdi-yu, – debdi u. – Birini qoldirgan edim, ikkinchisini topdim. Nonushtaga zap to'yadigan bo'ldim-da.

– Rostdan yemoqchimisan? – deb so'rabdi askar.

– Yeganda qandoq.

– Qo'ysang-chi, tiqilib o'lasan-ku!

– Hali mendar kuchlimisan?

– Bo'lmasa-chi! Yo tavba, askarning sendan kuchli ekanini bilmaysanmi?

– Bo'lmasa qani kel, kuch sinashaylik, kim zo'r ekan.

– Kel.

Ajdaho katta toshni olibdi-da, shunday debdi:

– Qarab tur, men mana shu toshni bir qo'llim bilan siqib kukun qilib yuboraman.

– Juda soz, ko'ramiz.

Ajdaho toshni olib, bir ezgan ekan, uchqunlar chaqnab qumga aylanib ketibdi.

– Va-a, shu ham ish bo'libdimi, – debdi askar. – Sen toshni shunday ezginki, undan suv chiqib ketsin.

– Qo'limdan kelmaydi, – debdi ajdaho.

– Mening qo'limdan keladi, hozir ko'rsataman.

Shunday deb uyg'a kiribdi-da, kecha kechqurun tay-yorlab qo'ygan bir tugun suzmani olib chiqib bir ezgan ekan, shar etib zardobi oqib tushibdi.

– Qalay? Ko'rdingmi?

– Ko'rdim, mendan kuching ko'p ekan. Endi kel, kim qattiq hushtak chalar ekan, sinashib ko'ramiz.

– Bo'pti, qani chal-chi.

Ajdaho bir hushtak chalgañ ekan, butun daraxtlar-ning bargi uchib ketib, yalang'och bo'lib qolibdi.

– Yaxshi hushtak chalar ekansan, lekin mendek emas, debdi askar. Ko'zingni bog'lab ol, bo'lmasa hushtak chal-ganimda ko'zing kosasidan chiqib ketadi.

Ajdaho xo'p deb, ko'zini bog'lab olibdi.

– Qani chal-chi.

Askar bir so'yilni olibdi-da, uning qoq boshiga tu-shiribdi! Ajdaho to'lg'anib, ovozi boricha chinqiribdi:

– Bo'ldi, bas qil, askar, chalma boshqa. Bitta chalga-ningdayoq ko'zim kosasidan chiqib ketay dedi, qulog'im hali ham shang'illayapti.

– Ixtiyorin, men yana bir-ikki marta chalishga tay-yormen.

– Yo'q, kerak emas. Endi bahslashmayman. Kel, yax-shisi aka-uka tutinamiz, sen menga aka, men senga uka bo'laman.

– Sen bilan aka-uka tutingim kelmaydi-yu, lekin may-li, aytganing bo'la qolsin.

– Endi, aka, – debdi ajdaho, – bu cholni yemaymiz, o‘z xo‘jaligimiz bilan shug‘ullanamiz. Cho‘lga bor, u yerda bir poda ho‘kiz o‘tlab yuribdi. Eng semizini tanla-da, dumidan sudrab, shu yerga olib kel, ovqatlanamiz.

Askar noiloj cho‘lga ketibdi.

Qarasa, juda ko‘p ho‘kiz o‘tlab yurganmish. Askar ularni tutib, dumlarini bir-birlariga bog‘lay boshlabdi.

Ajdaho kutib-kutib, toqati toq bo‘libdi-da, o‘zi uchib kelibdi.

– Nega kechikib qolding? – debdi u.

– Shoshma, – debdi askar, – birato‘la elliktasini bog‘-layman-da, hammasini uyga olib boraman, bir oy maza qilib yeymiz.

– E, toza qiziq ekansan-ku! Bu yerda umrbod turmaymiz-ku. Bittasi ham yetadi.

Ajdaho shunday deb bitta semiz ho‘kizning dumidan ushlab, ustiga ortibdi.

– Chatoq bo‘ldi, – debdi askar, – shuncha ho‘kizni bog‘lovdim, tashlab ketaveramizmi?

– Ha, – debdi ajdaho. – Nima keragi bor?

Uyga yetib kelishibdi, ikki qozon osishibdi, lekin suv yo‘q emish.

– Ho‘kizning terisini ol-da, – debdi ajdaho, – suv olib kel, ovqat pishiramiz.

Askar terini olib, quduq oldiga zo‘rg‘a sudrab kelibdi.

Quduq oldiga kelib, atrofini kavlay boshlabdi.

Ajdaho kutib-kutib, sabri chidamay o‘zi yugurib kelibdi.

– Nima qilyapsan, aka?

– Quduqning atrofini kavlab, uni tag-tugi bilan uyga olib ketmoqchiman. Har kuni suvgaga kelib o'tiramizmi?

– Toza qiziq ekansan-ku! Qayoqdagi ishlarni topasan-a! Atrofini kavlashga ko'p vaqt ketadi, biz ovqat pishirishimiz kerak, axir.

Ajdaho ho'kiz terisini quduqqa tushiribdi-da, to'latib suv olib, uyga jo'nabdi.

– Aka, o'rmonga bor-da, quruq bir emanni sudrab, uyga keltir, olov yoqish kerak, – debdi ajdaho.

Askar o'rmonga boribdi-da, po'stloq shilib, arqon esha boshlabdi. Uzun arqon eshibdi-da, emanlarni bog'labdi.

Ajdaho kutib-kutib toqati toq bo'libdi, yugurib o'rmonga o'zi kelibdi.

– Muncha imillayapsan?

– Yigirmata emanni arqon bilan bog'lab, ildiz-pildizi bilan uyga olib boraman, anchaga yetadi.

– E, seni qara-yu, qayoqdagi ishlarni o'y lab topasan-a, – debdi ajdaho.

U katta emanni ildizi bilan sug'urib olibdi-da, sudrab kulbagaga olib kelibdi.

Askar o'zini qattiq ranjiganga solib, indamay chubugini tortaveribdi.

Ajdaho go'shtni pishiribdi-da, akasini ovqatlanishga chaqiribdi. Askar jahl bilan:

– Yemayman, – debdi.

Ajdaho butun boshli ho'kizni paqqos yeb, teridagi suvni batamom ichib, askardan:

– Nega xafasan? – deb so'rabdi.

– Qachon qarasam qilgan ishimdan qiyiq topib turasan.

– Shunga xafa bo'ldingmi, qo'y, xafa bo'lma, yaramashimiz.

– Agar men bilan yarashmoqchi bo'lsang, meni o'z qishlog'imga olib borib qo'y.

– Xo'p bo'ladi, aka, olib borib qo'yaman.

Askar ajdahoning ustiga minib, uchib ketibdi.

Ajdaho askarning qishlog'iga yetib yerga tushibdi.  
Uni qishloq bolalari ko'rib qolishibdi:

– Askar keldi! Ajdaho olib keldi! – deb ular bor ovozlar bilan qichqirib chopib kela boshlabdilar.

Ajdaho o'takasi yorilib:

– Ular nima deb baqiryaptilar? Tushunolmayapman,  
– deb so'rabdi.

– Seni o'ldiramiz, deb qichqirishyapti.

«Obbo, – deb o'ylabdi ajdaho, – bu joyning mushtday bolalari shu bo'lsa, kattaroqlari meni sog' qo'ymas ekan-da».

U askarning tagidan sakrab chiqibdi-da, ura qochibdi.

Shu qochganicha nom-nishonsiz ketibdi. Qo'rqqanidan qishloqlarga kelmaydigan, odamlarga tegmaydigan bo'libdi.



## Sopol dekcha

Bop ekan, yo'q ekan, bir mujik bilan uning xotini bor ekan. Ikkovlari biram yalqov ekanki... nima qilishsa ham qo'llarini sovuq suvga urmaslikka, o'zlarining ishlarini boshqaning yelkasiga yuklashga urinisharkan. Hatto kechqurun yotishayotganda eshikning ilgagini ilishga ham erinisharkan: ertalab uyg'onganda baribir uni tu-shirishga to'g'ri keladi... Ilgaklamay yashayveramiz, balo ham urmaydi, deyisharkan.

Bir kuni xotin bo'tqa pishiribdi. Bo'tqa dam yeb, dona-dona bo'lib qizarib pishibdi! Xotin dekchani pechdan olib stol ustiga qo'yibdi, sariyog' solib, bo'tqani xushxo'r qilibdi. Mana, ovqatlanib bo'lib, qoshiqlarni ham yalab qo'yishibdi... Lekin bundoq qarashsa, dekchaning tagi bilan bir yoni ozgina qirmoch olganmish, demak dekchani yuvish kerak. Shunda xotin debdi:

- Mana, er, men o'z ishimni qilib bo'ldim – bo'tqa pishirdim. Endi dekchani sen yuvishing kerak!
- Be, gapingni qara-yu! Dekcha yuvish erkak kishining ishi emas! O'zing yuvib qo'yasan.
- Yuvishni xayolimga ham keltirmayman!
- Men ham yuvmayman.
- Yuvmasang – yuviqsiz qolsin!

Xotin shunday debdi-yu dekchani pechka oldiga «do'q» etib qo'yib, o'zi deraza tagiga qo'yilgan suyanchiqsiz uzun o'rindiqqa uzala tushib yotib olibdi.

Pechka oldida dekcha yuvilmay turaveribdi.

– Xotin, hoy, xotin! Dekchani yuvib qo'ysang bo'lardi!

– Aytdim-ku – dekchani yuvish sening ishing, deb.

O'zing yuv!

– Unday bo'lsa, xotin, shartlashamiz: kim ertaga biringchi bo'lib o'rnidan tursa va birinchi bo'lib gapirsa, dekchani o'sha yuvadi. Lafzidan qaytgan odammas.

– Bo'pti, pech ustiga chiqib yotaver, ertaga bir gap bo'lar.

Shunday qilib, er pech ustida, xotin o'rindiqda yotib, uxlashibdi. Kun botibdi, so'ng qorong'i tun boshlanib, keyin tong ham otibdi.

Kun yoyilib ketibdi hamki, na er, na xotin yotgan yerdan jilibdi – ikkalovi ham «qimir» etmay yotaveribdi – dekcha yuvishni xohlashmapti-da.

Xotinning qiladigan ishlari ko'p: sigirni sug'orishi, sog'ishi, dalaga haydab chiqib, podaga qo'shishi kerak, shunday bo'lsa ham u qo'zg'almay, baqrayib yotgan mish.

Qo'shni xotinlar allaqachon sigirlarini haydab chiqib podaga qo'shib yuborishibdi.

– Negadir Malanyadan darak yo'g'-a? Kasal-pasal bo'lib qolmadimikin?

– Ha, hayalladi. Qaytayotganimizda uchratib qolsak ajab emas.

Lekin xotinlar qishloqqa qaytishibdi hamki, Malanya ko'rinnabdi.

– E, yo'q! Bir gap bo'lganga o'xshaydi!

Qo'shni xotin xabar olgani eshik oldiga boribdi. Qara-sa – eshik zanjirlanmagan ham. Biron kor-hol bo'lganov, deb ichkariga kirib har tomonga ko'z yugurtiribdi.

– Malanya, onaginam!

Xotin bo'lsa o'rindiqda ko'zlarini baqraytirib yotganimish-u lekin o'zi qimir etmasmish.

– Nega sigiringni podaga olib chiqib qo'shmading? Yo tobing qochib qoldimi?

Xotin churq etmabdi.

– Voy, o'lmasam, senga nima bo'ldi o'zi? Bundoq gapirsang-chi?

Xotin lom-mim demay yotaveribdi.

– Yo xudo, o'zing rahm qill! Ering qayoqda? Vasiliy, hoy Vasiliy!

Qo'shni xotin pech ustiga qarasa, Vasiliy ko'zini shiftga tikib, uzala tushib yotgan mish.

– Xotiningga nima bo'ldi, a? Yo biron gap bo'ldimi?

Er xuddi og'ziga so'k solib olgandek «churq» etmasmish. Bu holni ko'rghan qo'shni xotin vahimaga tushibdi.

– Borib xotinlarga xabar qilay! – debdi-yu g'izillaganicha eshikma-eshik yugurib ketibdi.

– Voy egachilar, Malanya bilan Vasiliyga bir balo bo'l-ganga o'xshaydi: xotini o'rindiqda, eri pech ustida yer-parchin bo'lib yotishibdi. Sho'rliklarning ko'zi ochiq-u, illo gapga kelganda, churq etib tovush chiqarishmayapti. Jin-pin tegmaganmikin mabodo?

Xotin-xalaj yugurib kelib, ularning tepasida chuvvos sola boshlashibdi:

– Voy, bechoralar-ye! Axir nima bo'ldi o'zi sizlarga? Hoy, Malanyushka! Gapirsang-chi, Vasilyushka! Axir nega gapirmaysizlar?

Er-u xotin xuddi mum tishlagandek gung bo'lib yotgan mish.

– Popni chaqirib kelish kerak, egachilar! Miyalari aynib qolgan ko'rindadi!

G'irillab borib popni chaqirib kelishibdi.

– Mana, taqsir, qimir etmay yotishibdi ikkalovi: ko'z-lari ochiq, ammo «churq» etib ovoz chiqarishmayapti. Ins-jins tekkan bulsa-ya!

Pop soqolini silab qo'yib pechka oldiga boribdi:

– Xudoning bandasi Vasiliy! Nima bo'ldi o'zi?

Er gungmish.

Pop o'rindiqqa yaqinlashibdi:

– Xudoning ojiza bandasi! Eringga nima bo'ldi?

Xotin ham gungmish.

Qo'shni xotinlar bir oz g'o'ngir-g'o'ngir gaplashib turishgach, birin-ketin tarqala boshlashibdi. Axir hammaning uyida o'ziga yarasha ishi bor-da: birov pechka-ga o't yoqishi, birov bolalarini ovqatlantirishi, boshqasi jo'jalarga don, cho'chqalarga tert berishi kerak.

Pop bunday debdi:

– O, ojizalar, bularni shu alfovza qarovsiz qoldirish xatarli, birontangiz tepalarida o'tirsangiz bo'lardi.

Lekin xotinlar, uyda ishimiz qalashib yotibdi, vaqtimiz yo'q, deb aytishibdi.

– Ha-ya, mana, – deyishibdi ular, – Stepanida buvi o'tirib tura qolsin. Uyida yig'lab qolgan bolasi yo'q – so'qqabosh xotin.

Stepanida kampir bo'lsa, popga ta'zim qilib, bunday debdi:

– E, yo‘q, otaxon, tekinga mushuk ham oftobga chiq-maydi! Siz menga xizmat haqi tayinlang, shunda, mayli, qarab turaman.

– Xo‘s, xizmating evaziga senga nima bersam ekan-a, – debdi pop va uyning hammayog‘iga ko‘z yugurtirib chiqibdi. Qarasa, eshik oldida, qoziqda Malanyaning titilib, paxtalari oqib yotgan uvada kamzuli osilib turganmish. – Mana, – debdi pop, – manovi kamzulni olarsan. Ancha eskirib qolibdi, ammo hech bo‘lmasa, yotganingda oyog‘ingni o‘rashga yaraydi.

Pop gapini tugatmasdan, uy bekasi xuddi ustidan qaynoq suv quyilgandek, dik etib turib ketibdi va xona-ning o‘rtasida ikki qo‘lini biqiniga tirab turib:

– Bu nima qilganingiz, a! – debdi. – Mening molimni boshqalarga ulashyapsizmi? Uni hali o‘zim kiyaman, ki-yib-kiyib, kimga xohlasam, o‘shanga sovg‘a qilaman!

Hamma hang-u mang bo‘lib qolibdi. Er bo‘lsa bamay-lixotir oyog‘ini pechkadan osiltirib, engashib bunday debdi:

– Ana, xotin, birinchi bo‘lib sen gapirding – endi dekchani o‘zing yuvasan.



## Echki ko'mish marosimi


Bor ekan-da, yo'q ekan, bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Ular farzandsiz bo'lib, peshonalarida bitta-yu bitta echkilari bor ekan. Cholning qo'lidan faqat chipta kavush to'qish kelar, ular shuni sotib kun kechirar ekanlar.

Chol qayoqqa borsa, echki ham uning ketidan ergashar, unga juda o'rganib qolgan ekan. Kunlarning birida chol o'rmonga yo'l olgan ekan, echki ham uning ortidan jo'nabdi.

Chol o'rmonga kelib po'stloq shilishga kirishibdi, echki bo'lsa o'tlab ketibdi. O'tlab yurganida oyog'i birdan yumshoq joyga botib ketibdi. O'sha yerni kovlasa bir xum oltin chiqib qolibdi.

Echkining qiliq'ini ko'rib, uning yoniga kelgan chol oltinga ko'zi tushibdi-yu, o'zida yo'q quvonib, po'stloqlarni chetga uloqtiribdi. So'ng oltinni olib uyiga kelibdi va voqeani kampiriga so'zlab beribdi.

– Ana chol, – debdi kampir, – bu xazina ikkimizning kambag'alchilikda tortgan azoblarimiz uchun topilgan. Endi qariganimizda xo'p rohat qilib yashaydigan bo'ldik-da.



– Yo‘q, kampir, – debdi chol, – bu tillalarni biz emas, echki topdi, endi o‘zimizdan ham ko‘ra ko‘proq uni avay-lashimiz lozim.

Ular echkini aylanib-o‘rgilib parvarish qila bosh-lashibdi, o‘zлari ham yaxshi turmush kechirishibdi. Chol chipta kavush to‘qishni unutib yuboribdi. Chol-u kampir g‘am-tashvishsiz kun kechiraverishibdi.

Oradan bir qancha vaqt o‘tgandan keyin echki kasal-ga chalinib o‘lib qolibdi. Chol-kampir uni nima qilish kerakligi haqida maslahatlashibdi.

– Itlarga tashlasak gunohga botamiz. Nega deganda echki tufayli boy bo‘ldik. Yaxshisi men popning yoniga boray-da, uni odamday ko‘mishga ruxsat so‘ray.

Chol otlanib popning yoniga boribdi-da, ta’zim qilib:

– Salom, otaxon, – debdi.

– Salom, chirog‘im! Xo‘sш, xizmat?

– Shunday, otaxon, dargohingizga bir iltimos bilan keldim. Xonadonimizda bir baxtsizlik ro‘y berdi, echkimiz o‘lib qoldi. Ko‘mish marosimiga chaqirgani kelgan edim.

By gapni eshitgan pop tutaqib ketib, uning soqolidan mahkam ushlabdi-da, uyda gir aylantira boshlabdi.

– O, badbaxt! O‘ylab topgan gapingni qara-ya! Sassiq echkini ko‘marmish-a!..

– Otaxon, u juda galati echki edi-da, odamlardek vasi-yat qilib, sizga ikki yuz so‘m berib qo‘yishimni aytib ket-gan.

– E, achigan chol! – debdi pop, – avvalroq qayerda eding, seni echki ko‘mishga chaqirganining uchun urayot-ganim yo‘q, uning vafot etganligi haqida vaqtiroq xabar

bermaganing uchun uryapman, ehtimol, o'lganiga ancha vaqt bo'lib qolgandir.

Pop choldan ikki yuz so'mni olgach:

– Qani, yugurgancha dyakon (ruhoniyl)ning yoniga yugur, tayyorgarlik ko'rib tursin. Hozir echkini ko'mgani boramiz, – debdi.

Chol dyakonning yoniga kelib:

– Otaxon, sizni bir oz bezovta qiladigan bo'ldim, o'lik chiqarmoqchimiz, biznikiga borsangiz, – debdi.

– Kiming vafot etdi?

– O'sha o'zingiz ko'rgan echkim o'lib qoldi!

Bu gapni eshitgan dyakon chol bechoraning qulog-chakkasiga shapaloq tortib yuboribdi!

– Otaxon, meni urmang, – debdi chol, – axir u juda g'alati echki edi, o'layotgan paytida odamlardek vasiyat qilib, sizga yuz so'm berib qo'yishimni aytib ketgan.

– Ey nodon chol, – debdi dyakon, – axir nega uning vafoti haqida vaqtliroq xabar qilmading? Qani, endi dyachok (ruhoniyl)ning yoniga yugur.

Chol dyachokning yoniga kelib:

– Echkiga janoza o'qib bersang deb kelgan edim, – debdi.

Bu gapni eshitgan dyachokning jahli chiqib, cholning soqolidan torta boshlabdi. Chol bo'lsa:

– Soqolimni qo'yib yubor, birodar, axir u chakana echkilardan emas edi, o'lish oldidan senga ellik so'm vasiyat qilib ketdi, – debdi.

– Ey ahmoq, bo'lmasa nega bunaqa ivirsib yuribsan? Tezroq kelib aystsang o'larmiding? Men janozaga odam to'plardim.

Dyachok shu zahoti butxonaning qo'ng'iroqlarini ja-ranglatib yuboribdi.

Pop bilan dyakon cholnikiga kelib, echkini ko'mishga tayyorlik ko'rishibdi. Uni tobutga solib mozorga olib borishibdi-da, ko'mishibdi.


Bu hangoma cherkov qavmi o'rtasida gap bo'lib, oxi-ri oliy kashish – arxiereyning qulog'iga borib yetibdi. Arxierey pop bilan cholga jazo berish uchun ularni o'z yoniga chaqirtiribdi.

– Echkiga janaza o'qishni kim chiqardi, imonsizlar!

– Axir, bu echki jaydari echkilardan emas edi. U o'lish oldida siz janoblariga ming so'm vasiyat qilib ketdi.

– Ey esini yegan chol! Men seni echki ko'mganing uchun emas, uni tiriklik vaqtida yaxshilab boqmaganing uchun urishyapman!

U ming so'mni olib, chol bilan popni uy-uylariga jo'-natib yuboribdi.



## MUNDARIJA

Bo'g'irsoq .....	3
Tulki va tayoqcha .....	8
Bo'ri va yetti uloqcha .....	10
Mitti bola .....	13
Dehqon va ayiq .....	17
Shahzoda Ivan bilan kulrang bo'ri .....	20
Opa-uka Alyonushka bilan Ivanushka .....	30
Askar bilan malika .....	35
Qurbaqa malika .....	46
Hayvonlar qishlovi .....	56
Sehrli uzuk .....	60
Laqma ajdaho bilan uddaburon askar .....	80
Sopol dekcha .....	86
Echki ko'mish marosimi .....	91

**UO'K: 398.2(=161.1)**

**KBK: 82.3(2Rus)**

**R 91**

**R 91** Rus xalq ertaklari [Matn] / tuzuvchi A. Ashurov. – Toshkent:  
Yangi kitob, 2020. – 96 b.

ISBN 978-9943-5768-7-2

UO'K: 398.2(=161.1)

KBK: 82.3(2Rus)

---

*Adabiy-badiiy nahr*

## **RUS XALQ ERTAKLARI**

**Muharrir:** Anvar NAMOZOV

**Musahih:** Navro'z BEKMURODOV

**Rassom:** Elnur EGAMOV

**Texnik muharrir:** O'tkir TOJIBOYEV

Nashriyot litsenziyasi: AI № 255, 31.12.2014.

Terishga berildi: 30.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 20.0 .2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108  $\frac{1}{32}$ .

Selina garniturasi. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 2,82. Shartli b.t.: 5,04.

Adadi: 5000 nusxa.

Buyurtma № 17

«Yangi kitob» nashriyotida nashrga tayyorlandi.

100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,

Chilonzor dahasi, 13-mavze, 45-uy.

Tel: (+99891) 132-36-64, (+99890) 992-35-01

e-mail: yangikitob@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi.

100128, Toshkent shahri, Labzak ko'chasi, 86-uy.



# RUS XALQ ERTAKLARI

«Ertak yolg'ondan iborat, ammo unda bolalarga ibrat bo'lgulik saboqlar ozmuncha emas», deyiladi rus matallarida. Bu bejiz emas. Xayoltsiz ertakning o'zi yo'q. Ular ibratomuz bo'lib, «yxaxshi bolalar» o'zlar uchun hayotda kerakli yaxshi narsalarni o'rganadilar. Bu yaxshi narsalar esa chiroyli odob-axloq, ezgulik, halollik, oqillik kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Hatto boshga kulfat tushganda undan qutulish tadbir va yo'l-yo'riqlarini o'rganishda ham ertaklar katta ahamiyatga ega. Bir-biridan qiziqarli ertaklar olamiga xush kelibsiz, aziz bolajonlar!



5+



ISBN 978-9943-5768-7-2



9 789943 576872